



MILLIY ARMIYA – DNA YURT QALQONI, TINCHLIGIMIZ POSBONI!

"YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO'LIB,
YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!"

VATANPARVAR

XOTIRA

*Yurt sha'niga tikkan yigit jonini,
Chaqin umri tutdi Vatan shonini,
Janggohlarda to'kdi shahid qonini,
Yovqur ketgan kelbati Farhodlarim.*

*Xalq dardiga tayanch edi nomingiz,
Qay chohlarda sindi umr jomingiz,
Erkka da'vat – qoldirgan in'omingiz,
Ozod yurtida orzusi murodlarim.*

*Jaholatga qalqon bo'lgan lochinlar,
To'maridan tizgin olgan Barchinlar,
Istiqlolga jon atagan mard chinlar,
Shahid ketgan oxirat obodlarim.*

*Ulug' yurtga intilar shoh-u gado,
Shum niyat-la qadam bosolmas, illo –
Mardlari bor arslon yurak, jonfido,
Temur nasli jasur asl zotlarim.*

*Avlodlarda yashar yurak cho'g'ingiz,
Erk taxtida baland turar tug'ingiz,
Humo qushi asli sizning ruhingiz,
Vatan uzra so'nmas ruhi shodlarim.*

*Joningiz-la yog'iyni etdingiz mahv,
Xotirangiz ulug'likka musharraf,
Nomingizga jo bo'ldi mangu sharaf,
Hur Vatanda nomi o'chmas mardlarim.*

Zulfiya YUNUSOVA



**IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY,
HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI**

GAZETA 1992-YILNING
24-iyunidan chiqqan boshlagan
www.mv-vatanparvar.uz

**2026-YIL 31-IYUL
№31 (3197)**



Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!

VATANPARVARLIK VA TAFAKKUR —

Insoniyat tarixi shundan dalolat beradiki, har bir millatning ulug'vorligi uning nafaqat bosib o'tgan yo'li, balki kelajakka qaratilgan mushtarak maqsadi bilan o'lchanadi. Mana, jonajon Vatanimiz o'zining mustaqil taraqqiyot yo'lida qutlug' dovon – 35 yilligiga qadam qo'ymoqda. O'ttiz besh yil – bu tarix o'lchovida bir lahza bo'lishi mumkin, ammo millat tafakkuri, madaniy o'zlikning tiklanishi va yangi davlatchilik poydevorining yuksalishi nuqtayi nazaridan butun bir asrga tatigulik ulkan silsila. Bu davr mobaynida xalqimiz asrlarga tatigulik mashaqqatli va sharaflı yo'lni bosib o'tib, o'z taqdirining haqiqiy egasiga aylandi.

ASOSIY ILMIY-INTELLEKTUAL MARKAZLARDAN BIRI

Zamonaviy geosiyosiy vaziyat va gibrud urushlar sharoitida davlatlarning mudofaa qudrati faqatgina an'anaviy Qurolli Kuchlar bilan emas, balki kibermakondagi barqarorlik va mustahkam harbiy aloqa tizimlari bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa institutida mustaqilligimizning o'tgan davrida ulkan o'zgarishlar amalga oshirilib, **unda ofitser-kadrlarni tayyorlash jarayoni "yuqori texnologik intellekt va mustahkam ma'naviy immunitet" paradigmasiga asoslandi.**

Bugungi kunda axborot maydonlaridagi kurashlar qurolli to'qnashuvlardan kam ahamiyat kasb etmayotgan bir paytda mazkur ta'lim dargohi mamlakatimizning raqamli qalqonini shakllantiruvchi asosiy ilmiy-intellektual markazlardan biriga aylanib ulgurdi.

FAKULTETDAN INSTITUTGACHA

Harbiy institutning tarixiy ildizlari istiqbolimizning ilk yillariga borib taqaladi. Dastlab, O'zbekiston Qurolli Kuchlari uchun aloqachi-ofitserlar tayyorlash ishlari Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining (TATU) Maxsus fakultetida olib borilgan. Mazkur fakultet uzoq vaqt davomida harbiy aloqa sohasi uchun kadrlarni yetkazib beruvchi asosiy baza hisoblangan.

Sohani yanada takomillashtirish va harbiy aloqachilarning professional saviyasini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi tegishli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq, TATU Maxsus fakulteti negizida mustaqil oliy harbiy ta'lim muassasasi – Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti tashkil etildi.

Ta'lim tizimi va uning o'ziga xosligi tubdan yangilanib, ofitser kadrlarni tayyorlash 2 yillik tizim asosida yo'lga qo'yildi. Dastlab taktik bo'g'indagi ofitserlar 6 ta asosiy yo'nalish bo'yicha tayyorlangan bo'lsa (jumladan, aloqa qo'shinlari taktik qo'mondonlik-muhandisligi, maxsus aloqa va davlat sirlarini muhofaza qilish, axborot tizimlari

va texnologiyalari), keyinchalik zamon talablaridan kelib chiqib ularning soni 8 taga, so'ngra yanada kengaytirildi.

Harbiy ta'lim tizimining uzluksiz transformatsiyasi jarayonida 2025-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti sifatida qayta tashkil etildi. Harbiy institut bugungi kunda tayanch doktorantura, magistratura va 11 ta qo'shinlarning taktik qo'mondonlik muhandisligi yo'nalishi bo'yicha taktik bo'g'indagi ofitser kadrlarni tayyorlashni muvaffaqiyatli amalga oshirmoqda.

Zamonaviy xavf-xatarlarga qarshi turish maqsadida institut tarkibida maxsus Kiberxavfsizlik fakulteti ham faoliyat ko'rsatayotgani tarmoq xavfsizligi bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar yetishtirishda muhim qadamdir. Institut o'z faoliyatida nafaqat nazariy bilimlarga, balki Qurolli Kuchlar ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda dasturiy mahsulotlar yaratish, harbiylashtirilgan aloqa tizimlarini modernizatsiya qilish kabi amaliy va ilmiy tadqiqot ishlariga ham katta urg'u bermoqda.

XALQARO MAYDONDAGI YUTUQLAR VA YOSHLAR QALBIDAGI VATANPARVARLIK

Hozirgi shiddatli globallashuv va raqobat asrida harbiy ta'lim muassasalari kursantlari oldiga qo'yilayotgan talablar



faqatgina jismoniy chidam va harbiy nizomlarni o'zlashtirish bilan cheklanib qolmaydi. Zamonaviy mutaxassis harbiy bu keng dunyoqarashga ega, strategik fikrlaydigan, axborot texnologiyalarini puxta egallagan va har qanday intellektual bahsda o'z pozitsiyasini himoya qilib ola biladigan barkamol shaxsdir.

Bugungi kunda Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti kursantlari qator nufuzli xalqaro va respublika

miqyosidagi fan olimpiadalari, kasbiy musobaqalar hamda intellektual loyihalarda faol qatnashib, yuqori shohsupalarni egallab kelmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tizimida o'tkazilayotgan qo'shinlar miqyosidagi kasbiy mahorat musobaqalarida institutimiz vakillari umumjamoa hisobida sovrinli o'rnlarni qo'lga kiritayotgani, ilmiy-amaliy konferensiyalar hamda "Zakovat", "Eng yaxshi kitobxon" kabi interaktiv-intellektual o'yinlarda muntazam ravishda g'oliblikni hech kimga bermay kelayotgani buning yaqqol isbotidir. **Bu kabi yutuqlar oddiy raqamlar yoki ko'rsatkichlar emas, balki muassasamizda yo'lga qo'yilgan ta'lim va tarbiya jarayonining naqadar puxta hamda samarali ekanining ilmiy-amaliy tasdig'idir.**

Ushbu erishilayotgan yutuqlar kursantlarimizning yoshlar o'rtasida harbiy xizmatga bo'lgan qiziqishini keskin oshirish barobarida, ularning qalbida Vatan taqdiri uchun daxldorlik hissini kuchaytirmoqda. Bugungi yosh askar va bo'lajak ofitser ongida mustahkam ma'naviy immunitetni shakllantirmay turib, zamonaviy xavf-xatarlar va psixologik tahdidlarga qarshi kuchni yaratib bo'lmaydi. Chunki harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi – bu mustahkam birlik, o'zaro hurmat va jipslik faqatgina sog'lom fikrli, o'z tarixini chuqur his qiladigan avlod tomonidagina ta'minlanishi mumkin.

TARIX SABOQLARI

Vatanparvarlikning eng oliy va fidoyi namunasi haqida so'z ketganda, birinchi bo'lib ko'z oldimizga sulton Jaloliddin Manguberdi siymosi keladi. Uning jasorati nafaqat harbiy taktika va

strategiya mukammalligi, balki insoniy iroda va ruhiy yengilmaslik ramzidir. Sind daryosi bo'yidagi qaqshatqich jangda o'zining kam qo'shini bilan mo'g'ullarning ulkan va shafqatsiz armiyasiga qarshi mardonavor turgan **Jaloliddin bizga bitta buyuk haqiqatni qoldirdi: Vatan tuprog'ining har bir qarichi muqaddas va u uchun kurashish mutlaq farzdir.**

Bugungi kunda harbiy ta'lim muassasalarida kadrlarni tayyorlashda, xususan taktik qo'mondonlik, kiberxavfsizlik va zamonaviy aloqa yo'nalishlarida tahsil olayotgan yosh kursantlarga aynan mana shu yengilmas ruhiyatni singdirishimiz shart. Bugungi kunning qurollari – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli tizimlar qanchalik rivojlanmasin, bu murakkab vositalarni boshqaradigan insonning qalbida Vatan sevgisi va Jaloliddinga xos qat'iyat bo'lmasa, u o'z burchini mukammal bajara olmaydi. Texnologik kuch ma'naviy matonat bilan uyg'unlashgandagina haqiqiy yengilmas kuchga aylanadi.

AJDODLAR MEROSI VA VORISLARI

Sohibqiron Amir Temur bobomizning "Sohibqiron qismati – el-yurt g'amini yeyish" degan ulug'vor tamoyili bugungi avlod, ayniqsa bo'lajak yetakchi va ofitserlar uchun hayotiy dasturilamal bo'lishi lozim. Amir Temur tarix sahnasida nafaqat yengilmas sarkarda, balki buyuk davlat arbobi, ilm-fan va madaniyat homiysi sifatida gavdalanadi. **Uning davrida barpo etilgan muhtasham inshootlar, Mirzo Ulug'bek asos solgan rasadxona va ilmiy muassasalar muhim bir haqiqatni isbotlaydi: Vatanparvarlik maydondagi jang bilan emas, balki qalam,**



YANGI O'ZBEKISTONNING KELAJAK MEZONI



aql-zakovat, ilm-fan va ulkan bunyodkorlik bilan ham namoyon bo'ladi.

Bugungi kunning yosh mutaxassislari – xoh u dasturchi, xoh muhandis yoki radiotexnika sirlarini o'rganayotgan harbiy kadr bo'lsin – o'zining chuqur intellektual salohiyati bilan davlat mudofaa qudratini oshirishga xizmat qilishi aynan shu buyuk Temuriylar vorisi ekanining isboti. Vatanparvarlikning bugungi talabi o'z kasbining ustasi bo'lish, yuksak intellekt va texnologik bilimlarni Vatan ravnaqi yo'lida safarbar etishdir.

JADIDLAR – TAFAKKUR MAYDONIDAGI QAHRAMONLIK

XX asr boshlarida Turkiston zaminida kurtak otgan va shiddat bilan gurkirab o'sgan jadidlik harakati milliy tariximizda vatanparvarlikning mutlaqo yangi, g'oyat og'ir, mashaqqatli, ayni paytda eng sharaflari va ilmiy asoslangan bosqichini boshlab berdi. Mustamlaka tuzumining qatag'on va tazyiqlari, jaholat va qoloqlik hukmron bo'lgan bir davrda Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulhamid Cho'lpon, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon va boshqa ulug' ma'rifatparvar bobolarimiz millatni uyg'otish, uni jaholat va mutelik botqog'idan qutqarish, dunyoviy va zamonaviy ilm-fan yutuqlarini egallash yo'lida hatto jonlarini fido qildi.

Jadidlarning buyuk xizmati shunda ediki, ular ozodlik maydondagi qurolli to'qnashuvlar bilangina emas, eng avvalo, tafakkur inqilobi, ongning yuksalishi va ilmiy-ma'rifiy uyg'onish orqali qo'lga kiritilishini chuqur anglab yetdi. Ular Vatan mustaqilligining abadiy kaliti – eskirgan, qotib qolgan o'rta asr ta'lim tizimidan voz kechib, yangi usuldagi maktablar (*"Usuli jadid"*), zamonaviy darsliklar, milliy matbuot va ilg'or ilm-fan asoslarini

yaratishda ekanini ko'rsatib berdi. Ularning har bir yozgan asari, ochgan maktabi va qilgan islohoti bugungi kun uchun ham so'nmas ma'naviy dasturilamadir.

ZAMONAVIY VATANPARVARLIKNING QIYOFASI

Bugungi Yangi O'zbekiston sharoitida vatanparvarlik Vatanga bo'lgan cheksiz muhabbat, kundalik hayotdagi aniq amallar, kasbga sadoqat va yuksak fuqarolik mas'uliyati orqali namoyon bo'ladi. **Jadid bobolarimizning muqaddas g'oyalarini bugungi kun voqeligida davom ettirish orqali biz quyidagi hayotiy va fundamental haqiqatlarni chuqur anglaymiz:**

– **Chinakam vatanparvar** bu chet eldagi nufuzli universitetlarda o'qib, dunyoning eng so'nggi ilg'or texnologiyalari, innovatsion bilimlari va ilmiy yutuqlarini puxta egallab, o'z bilimini o'zi tug'ilib o'sgan qishlog'i, shahri va Vatani taraqqiyotiga sarflash uchun qaytib kelgan fidoyi yosh mutaxassisdir. U o'z kasbining haqiqiy ustasi bo'lish orqali davlatning raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

– **Chinakam vatanparvar** bu jamiyat taraqqiyotiga g'ov bo'layotgan har qanday korrupsiya va mansabparastlikka qarshi qat'iy kurashayotgan, har bir ishda halol, vijdonli, sadoqatli, temirdek intizom va yuksak mas'uliyat bilan mehnat qilayotgan shaxs. Uning o'z sohasidagi halol mehnati milliy iqtisodiyotning yuksalishiga va

jamiyatda adolat qaror topishiga qo'shilgan bebaho hissadir.

– **Chinakam vatanparvar** – bu o'z farzandining tarbiyachisigina emas, balki uning beshigiga egilib, kitob o'qib berayotgan, ongi va qalbiga milliy g'urur, tarixiy xotira, insonparvarlik, ota-onaga va yurtga sadoqat tuyg'ularini bolalikdan singdirayotgan aziz ona. Chunki jamiyatning kelajagi, millatning ma'naviy poydevori, avvalambor oiladan va ona allasidan boshlanadi.

KELAJAKNI YARATISH FORMULASI

Bugungi shiddat bilan o'zgarib borayotgan global geosiyosiy makon, texnologik raqobat va axborot xurujlari kuchaygan bir davrda barchamiz uchun hayotiy dasturilamal, mafkuraviy kompas va amaliy rahnamo bo'lishi lozim bo'lgan muqaddas tenglamani quyidagicha qat'iy ifodalash mumkin:

Tarixiy xotira + Bugungi mehnat (sadoqat, adolat, fidoyilik, halollik, intizom) + Ilm-fanga asoslangan maqsad = FAROVON KELAJAK.

Ushbu formula asrlar sinovidan o'tgan milliy g'ururimiz, bugungi kunning mashaqqatli hamda sharaflari faoliyatimiz, ertangi kunimizni kafolatlaydigan ilmiy-intellektual strategiyamizning yaxlit va buzilmas tizimidir. Xotirasiz kelajak yo'q, fidokorona mehnatsiz taraqqiyot yo'q, ilm-fansiz esa jahon arenasida raqobatbardoshlikka erishib bo'lmaydi.

Bugungi kunda O'zbekiston xalqaro maydonda o'zining qat'iy mustaqil siyosati, mustahkam geopolitik mavqeyi, iqtisodiy salohiyati va eng muhimi, yorug' kelajagiga ishonch bilan qadam qo'yayotgan qudratli, demokratik huquqiy davlatdir. Mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tiborining ortib borishi har bir yurtdoshimiz qalbida cheksiz faxr va g'urur tuyg'ularini uyg'otmoqda.

"Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!" degan ulug'vor va oliyjanob maqsad ostida bugun butun jamiyat jipslashgan. Bu ulug' shior milliy birligimizning abadiy kafolatidir. Bizning eng katta boyligimiz – bu boshimiz uzra porlab turgan musaffo osmonimiz,

jamiyatimizda hukmron bo'lgan tinchlik, barqarorlik hamda ko'p millatli, ahil va hamjihat xalqimizning o'zaro do'stligi.

Yurtimizda hukm surayotgan madaniyatlar, tillar, urf-odatlar va turli e'tiqodlarning rang-barangligi bizni hech qachon bir-birimizdan uzoqlashtirmaydi, aksincha xalqimizni yanada mustahkam birlashtiradi, milliy ruhiy olamimizni boyitadi va jamiyatimizni qudratli bir oilaga aylantiradi. Ana shu buyuk birlik va ahillik ruhida voyaga yetayotgan yosh avlod ertangi kunimizning ishonchli himoyachilari va haqiqiy bunyodkorlaridir.

UCHINCHI RENESSANS VA PORLOQ ISTIQBOL SARI

O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti intellektual qurollangan, raqamli makonda Vatan sarhadlarini himoya qilishga qodir bo'lgan kadrlar-mutaxassislarni tayyorlaydi. Ularning asosiy quroli – teran aql, bilim va Vatanga bo'lgan cheksiz sadoqat.

Biz, Vatanimiz dildan sevuvchi insonlar sifatida qat'iy ishonamizki, tomirlarida Jaloliddin Manguberdi va Temur Maliklarning, Amir Temurlarning jasorati, Bobur va Navoiylarning qoni oqayotgan xalq hech qachon zavol ko'rmaydi.

Mamlakatimizda izchil barpo etilayotgan Uchinchi Renessans yorqin tafakkur, yuksak madaniyat va bebaho insoniylik qadriyatlari ustiga quriladi.

Mustaqilligimizning 35 yillik bayrami barchamizga muborak bo'lsin! Vatanimiz tinch, xalqimiz omon, Yagona O'zbekistonimizning kelajagi doimo porloq bo'lsin! Biz birgalikda, yelkama-yelka turib, o'zimiz orzu qilgan va ajdodlarimizga munosib bo'lgan buyuk kelajakni, albatta, yaratamiz!

**Podpolkovnik
Farhod SAYDJANOV,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti siki boshlig'i, dotsent**



Tinchlik va millatlararo totuvlik qadri

GEOPOLITIKA VA

ZAMONAVIY TAHDIDLAR DAVRIDA OGOHLIK BURCHI

So'nggi yillarda dunyo xaritasida beqarorlik va geopolitik ziddiyatlar tobora kuchayib bormoqda. Bugun davlatlar o'rtasidagi raqobat faqat maydondagi harbiy to'qnashuvlar yoki iqtisodiy cheklovlar bilan cheklanmayapti. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining shiddatli rivoji fonida asosiy kurash maydoni insonlarning qalbi va shuuriga ko'chdi. Shunday tahlikali bir davrda mamlakatimizning xalqaro maydondagi obro'sini, eng muhimi yurtimizdagi tinchlik va millatlararo totuvlikni asrash har birimizdan yuksak siyosiy hushyorlikni talab etmoqda.

Bugungi kunda muayyan g'arazli kuchlar tomonidan jamiyatda sun'iy ravishda nizo keltirib chiqarish, aholi o'rtasida vahima va sarosima urug'ini sochishga qaratilgan tizimli axborot xurujlari kuchaymoqda. Buning uchun zamonaviy media texnologiyalar va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanib, soxta xabarlar tarqatilmoqda. Bunday ruhiy va axboriy ta'sir vositalari insonlarning hissiyotlarini qo'zg'atish, davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonchga putur yetkazish hamda asrlar davomida shakllangan ma'naviy qadriyatlarimizni yemirishni maqsad qilgani bilan juda xavflidir.

Dunyoda sodir bo'layotgan hech bir harbiy to'qnashuv yoki geopolitik inqiroz o'z-o'zidan yoki bir lahzalik hissiyot oqibatida paydo bo'lmaydi. Ularning ortida yillar davomida to'planib kelgan siyosiy, iqtisodiy, tarixiy va g'oyaviy sabablar yotadi. **Davlatlararo nizolarning eng qadimgi va eng ko'p uchraydigan sabablaridan biri hududiy va chegara muammolaridir.** Chunki geopolitikada hudud shunchaki geografik maydon emas, balki davlat xavfsizligi, iqtisodiyoti va milliy o'zligining mustahkam poydevori hisoblanadi.

Shu bilan birga, hududning geografik joylashuvi davlatning mudofaa salohiyatini belgilaydi. Tog' tizmalari, suv manbalari, bo'g'ozlar va dengizga chiqish yo'llarini nazorat qilish davlatlarga katta ustunlik beradi. Bunday muhim nuqtalarga egalik qilish va o'z iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash istagi ham chegara atrofidagi to'qnashuvlarga sabab bo'ladi.

Chegaralarning sun'iy o'tkazilishi oqibatida bir millat ikki va undan ortiq davlat tarkibida bo'linib qolishi ham mumkin. Bunday vaziyatlarda kamchilikni tashkil etgan aholining ajralib chiqish istagi yoki qo'shni mamlakatdagi millatdoshlar yashayotgan yerlarni "tarixiy adolat" bahonasida qaytarib olishga bo'lgan intilishlar kelib chiqadi.

Bundan tashqari, xalqaro huquqda chegaralarni xaritada belgilash va bevosita joyida ustunlar o'rnatish juda uzoq va nozik jarayondir. Agar bu borada tomonlarning siyosiy irodasi va murosasi yetishmasa, anklav hududlar, suv va yaylov resurslaridan foydalanish borasida chegaradosh aholi va harbiylar o'rtasida nizolar chiqib turadi.

Qisqa qilib aytganda, axborot va geopolitik xurujlar kuchaygan hozirgi zamonda eng muhim himoya qalqoni – bu

yuksak axborot savodxonligi, sog'lom aql va ahil-inoqlik. Zero zamonaviy tahdidlar va soxta xabarlar aldandir, yurtimizdagi millatlararo totuvlikni ko'z qorachig'idek asrash hamda davlatimiz suverenitetiga sodiq qolish – tinchligimiz va kelajagimizning eng mustahkam kafolati.

Geopolitik ustunlik va "kuchlar muvozanati" tushunchalari – davlatlararo raqobatning eng asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri. Xalqaro xavfsizlik arxitekturasidagi har qanday jiddiy o'zgarish yirik davlatlar o'rtasida manfaatlar to'qnashuvini va ochiq yoki yashirin nizolarni keltirib chiqaradi.

Dunyodagi ushbu geopolitik kurashning negizida aynan quyidagi omillar yotadi:

Gegemonlik, ya'ni mutlaq ustunlik uchun kurashda asosiy qarama-qarshilik mavjud dunyo tartibotini saqlab qolishga urinayotgan yetakchi davlatlar hamda xalqaro maydonni "ko'p qutbli" qilishga intilayotgan yangi kuchlar o'rtasida kechadi. Bir tomon, o'nlab yillar davomida shakllangan o'z ustunligi va ta'sir doirasini ushlab turishga harakat qilsa, ikkinchi tomon, global qarorlar qabul qilishda teng huquqlilik va o'z geografik atrofida xavfsizlik zonasini yaratishni talab etadi. Bunday raqobat siyosiy bosim, iqtisodiy sanksiyalar va axboriy xurujlar ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, dunyodagi "kuchlar muvozanati" buzilganida davlatlar o'z xavfsizligini ta'minlash uchun turli harbiy-siyosiy bloklarga qo'shila boshlaydi. Biroq bu jarayon "xavfsizlik dilemmasi"ni tug'diradi: bir davlat yoki bloklar guruhining o'z mudofaasini kuchaytirishi qo'shni va raqib davlatlar tomonidan bevosita tahdid sifatida qabul qilinadi. Natijada chegaralarda harbiy infratuzilmaning kengayishi, qurollanish poygasi va o'zaro ishonchsizlik muhiti ortadi, bu esa har qanday kichik provokatsiyaning katta geopolitik inqirozga aylanishiga zamin yaratadi.

Etnik, diniy va g'oyaviy omillar davlatlararo va jamiyat ichidagi nizolarni yuzaga keltiruvchi eng ta'sirchan vositalardan biridir. Ko'pincha bu omillar siyosiy va iqtisodiy manfaatlarni niqoblash hamda aholini ma'lum bir maqsadlar atrofida jipslashtirish, ularni urushga safarbar qilish uchun qulay qurol bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu yo'nalishdagi ziddiyatlarning negizida quyidagi asosiy jihatlar yotadi:

Etno-milliy nizolar odatda, bir davlat hududida yashovchi kamchilik millatning mustaqil bo'lish yoki ajralib chiqishga bo'lgan intilishi orqali namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, qo'shni davlatlar tomonidan ushbu chegaradosh hududlardagi millatdoshlarni "himoya qilish" yoki "tarixiy adolatni qaror toptirish" kabi bahonalar bilan boshqa suverenitetga ega davlatning ichki ishlariga aralashuvi kuzatiladi. Bu esa ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalarni keskinlashtirib, keng ko'lamlari harbiy to'qnashuvlarga yo'l ochadi.

Diniy va mafkuraviy adovat esa insonlarning e'tiqodi va dunyoqarashini sun'iy ravishda manipulyatsiya qilish orqali avj oldiradi. Bu jarayonda muayyan diniy oqimlarni radikallashtirish, turli siyosiy tuzumlar o'rtasidagi g'oyaviy qarama-qarshiliklarni bo'rttirib ko'rsatish hamda millatchilik kayfiyatini sun'iy ravishda oshirishda foydalanadi. Natijada jamiyatda "biz va ular" degan xavfli ayirilik yuzaga kelib, tinch-totuv yashab kelayotgan turli millat va e'tiqod vakillari o'rtasida o'zaro ishonchsizlik va adovat urug'i sochiladi.

NIZOLAR AYANAN QANDAY RIVOJLANADI?

Davlatlar va jamiyatlar o'rtasidagi nizolar hech qachon bir lahzada yoki to'satdan urushga aylanib qolmaydi. Ular muayyan bosqichlarni bosib o'tib, asta-sekin chuqurlashib boradi. Nizoning rivojlanish dinamikasini tushunish, uning barvaqt oldini olish va bartaraf etishda juda muhimdir.

Davlatlararo va ijtimoiy nizolarning rivojlanishi odatda, quyidagi mantiqiy bosqichlar orqali kechadi:

1. **Yashirin bosqich:** bu bosqichda ziddiyatli manfaatlar, e'tirozlar yoki tarixiy alamzadaliklar mavjud bo'lsa-da, ular hali ochiq yuzaga chiqmagan bo'ladi. Ichki keskinlik va norozilik kayfiyati sekin-asta to'planib boradi, ammo taraflar o'rtasidagi rasmiy munosabatlar tashqi tomondan barqarordek tuyuladi.

2. **Diplomatik va iqtisodiy keskinlik:** yashirin norozilik ochiq siyosiy maydonga chiqadi. Tashqi siyosatda keskin bayonotlar beriladi, savdo cheklari, sanksiyalar va cheklovlar qo'llaniladi. Elchilarni chaqirib olish, chegara o'tkazish punktlarining ishini cheklash yoki shartnomalarni bir tomonlama bekor qilish orqali bosim o'tkazish kuchayadi.

AXBOROT URUSHI.

3. Axborot va psixologik urush: ochiq harbiy harakatlar boshlanishidan oldin jamoatchilik fikrini tayyorlash bosqichi kechadi. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali raqib tomon “dushman” sifatida talqin qilinadi, soxta va chalgʻituvchi xabarlar tarqatiladi. Bundan maqsad – aholi oʻrtasida vahima va nafratni avj oldirish hamda oʻz harakatlarini maʼnaviy jihatdan oqlash.

4. Militarizatsiya va provokatsiya: kuch ishlatish xavfi ortadi. Chegaradosh hududlarga harbiy texnika va shaxsiy tarkib toʻplanadi, yirik harbiy mashgʻulotlar oʻtkaziladi. Soʻnggi qadam sifatida kichik qurolli toʻqnashuvlar, chegarani buzib oʻtish holatlari yoki sunʼiy ravishda tashkil etilgan provokatsiyalar sodir etiladi.

5. Ochiq harbiy nizo: oʻzining eng yuqori va xavfli nuqtasiga yetadi. Diplomatik munosabatlar toʻliq uziladi va muammoni hal qilish uchun toʻgʻridan toʻgʻri harbiy kuch ishlatiladi.

Bunday halokatli zanjirli reaksiyaning oldini olishning yagona yoʻli – nizoni birinchi va ikkinchi bosqichlaridayoq diplomatiya, konstruktiv muzokaralar hamda axboriy savodxonlik orqali toʻxtatib qolish.

Davlatlar oʻrtasidagi nizolar tobora murakkab va gibril koʻrinish olmoqda. Yaʼni bir vaqtning oʻzida ham iqtisodiy sanksiyalar, ham kiberhujumlar, ham axborot xurujlari va toʻgʻridan toʻgʻri harbiy harakatlar qoʻllanilmoqda. Bu esa zamonaviy dunyoda tinchlikni saqlash uchun yuksak diplomatiya, xolis axborot va siyosiy hushyorlikni talab etadi. Bu kabi makkorona xatarlar va gibril tahdidlar qarshisida ojiz qolmaslik uchun, eng avvalo, yengilmas “axborot immuniteti” va mustahkam

maʼnaviy qalqon hosil qilishimiz zarur. Bu jarayonda quyidagi muhim yoʻnalishlarga alohida eʼtibor qaratish talab etiladi:

Aholining axborot va mediasavodxonligini oshirish: har bir fuqaro tarmoqlarda uchraydigan har qanday xabarga tanqidiy nazar bilan qarashni, axborotning manbasini, xolisligini va maqsadini tahlil qilishni oʻrganishi kerak.

Rasmiy va xolis manbalarga tayanish: shov-shuvli va tekshirilmagan “sensatsion” xabarlariga emas, balki faqat ishonchli va rasmiy axborot vositalari tomonidan tasdiqlangan fakt va maʼlumotlarga tayanish lozim.

Jamiyatda yagona gʻoyaviy hamjihatlikni mustahkamlash: millati, dini va ijtimoiy kelib chiqishidan qatʼi nazar, hamyurtlarimiz oʻrtasidagi ahil-inoqlik va bagʻrikenglik muhitini koʻz qorachigʻidek asrash – tashqi va ichki fitnalarning oldini oluvchi eng asosiy omil.

Faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish: yurt tinchliligi va Vatan kelajagiga befarq boʻlmaslik, axborot makonida jamiyatni boʻlishga yoki parokandalikka chorlovchi chaqiriqlarga nisbatan murosasiz boʻlish zarur.

Xulosa qilib aytganda, axborot xurujlari kuchayotgan hozirgi tahlikali zamonda eng kuchli himoya vositasi – bu yuksak axborot isteʼmoli madaniyati, teran aql, vatanparvarlik tuygʻusi va Vatan ozodligi hamda tinchliligini har narsadan ustun qoʻyish. Jamlanib va ogoh boʻlib harakat qilsak, hech

qanday chalgʻituvchi axborot yoki tashqi xuruj jamiyatimiz barqarorligiga raxna sola olmaydi. Shu sababli yurtdoshlarimiz har bir tarqalayotgan xabarga tanqidiy nazar bilan qarashlari, manbaning ishonchliligini tekshirishlari va rasmiy axborot vositalariga tayanishlari zarur.

Tinchlik va barqarorlik – tasodifiy neʼmat emas. Bu oqilona davlat siyosati, xalqimizning bagʻrikengligi va milliy armiyamizning mustahkam qalqoni evaziga taʼminlanayotgan eng oliy qadriyatdir.

Yagona fikr, yagona maqsad – Vatan tinchliligi!

Xalqimizning buyuk va hamjihat tarixi, mustahkam irodasi hamda hushyorligi har qanday axborot xurujini chilparchin qilishga qodir. Yurtimiz tinchliligi, osmonimiz musaffoligi va millatlararo totuvlikni koʻz qorachigʻidek asrash – barchamizning muqaddas burchimiz!

Boʻlajak xavf-xatarlardan himoyalashning eng samarali yoʻli – **milliy axborot daxlsizligini mustahkamlash, ilm-fan va yuqori texnologiyalarni rivojlantirish, aholining axborot savodxonligini oshirish** hamda xalqaro hamkorlikni kuchaytirishdan iborat.

Munira KAXAROVA,
Oʻzbekiston Respublikasi
Kriminologiya tadqiqot institut
ilmiy xodimi, siyosiy fanlar doktori



Mardi maydonlar

ANIQ TEKKAN O'Q,

Poligon harbiy xizmatchi uchun iroda toblanadigan, mahorat charxlanadigan va kasbiy bilimlar mustahkamlanadigan ulkan hayot maktabimi? Kaminadan so'rasangiz, bu savolga ha, deb javob beraman. Chunki bu yerda jamoa ruhi shakllanadi. Bir safda yelkama-yelka turganlar vaqt o'tishi bilan bir-birini so'zsiz tushuna boshlaydi. Demak, o'sha maktabda pishadi.

Ba'zan bir nigoh, bir ishora yoki qisqa buyruqning o'zi yuzlab so'zlar o'rnini bosadi. Yetakchining qat'iy qadami, vazmin qarori va shaxsiy namunasi esa shaxsiy tarkibning o'z kuchi, qurol-yarog'i va eng muhimi, safdoshiga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlaydi.

Poligondagi nishon markaziga aniq borib qadalgan har bir o'q ortida yuzlab takrorlangan mashqlar, tomchilab oqqan ter, tinmay qilingan xatolar va ulardan chiqarilgan xulosalar mujassam. Mohir mergan bir kunda shakllanmaydi. Aniq nishonga yetgan har bir patron, avval yuzlab adashgan o'qlarning sabog'i evaziga topilgan natijadir.

Gap nima haqida ketayotganini anglagandirsiz, a?

Qisqasi, ushbu maqolada Sharqiy harbiy okrug tasarrufidagi dala-o'quv maydonlarida tashkil etilayotgan amaliy mashg'ulotlar, harbiy xizmatchilarning jangovar shayligi va kasbiy tayyorgarligini oshirishga qaratilgan o'quv jarayonlari haqida so'z yuritamiz.

Dastlab, Namangan viloyatida joylashgan "G'urumsaroy" dala-o'quv maydonida o'tkazilgan mashg'ulotlarga to'xtalsak. O'sha kuni poligon erta tongdanoq harakatga to'ldi. Hali quyosh tog' ortidan bosh ko'tarmasidan turib,

bo'linmalar belgilangan hududlarga chiqdi. Qisqa vaqt ichida jangovar saflanish amalga oshirilib, shaxsiy tarkibga navbatdagi vazifalar yetkazildi.

Mashg'ulotlar shartli vaziyatlar asosida tashkil etildi. Harbiy xizmatchilar belgilangan marshrut bo'ylab harakatlanish, yashirin siljish, qulay o't ochish nuqtalarini egallash, shartli dushman hujumini bartaraf etish hamda jangovar vaziyatda bo'linmalar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni ta'minlash bo'yicha amaliy harakatlarni bajardi. Har bir epizod real vaqt asosida tashkil etildi. Bu esa yurt o'g'lonlaridan nafaqat jismoniy chidam, balki tezkor fikrlash, to'g'ri qaror qabul qilish va jamoa bilan hamjihat harakat qilishni talab etdi.

Ayniqsa, tepaliklar va tabiiy to'siqlarga boy hududda amalga oshirilgan taktik harakatlar mashg'ulotlarning murakkabligini yanada oshirdi. Qizdiruvchi quyosh, chang-u g'ubor va uzluksiz harakat shaxsiy tarkib uchun qo'shimcha sinov edi. Biroq Vatan himoyachilari har bir topshiriqni belgilangan talablar asosida, yuqori mas'uliyat va intizom bilan ado etib, o'zlarining jangovar tayyorgarligi qay darajada ekanini yana bir bor amalda isbotladi.

Zotan, poligonda o'tgan har bir kun, mashg'ulot davomida bosib



Kapitan Urifjon MAMAJONOV

MEHNAT MEVASI EMAS(MI?)



o'tilgan har bir metr yo'l va nishonga aniq yetgan har bir o'q mamlakat mudofaa salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladigan muhim tayyorgarlik bosqichidir. Bu yerda harbiy xizmatchi nafaqat qurol bilan muomala qilishni, balki og'ir sharoitda ham o'z vazifasiga sadoqatli qolishni, safdoshiga

suyanishni va Vatan himoyachisi degan yuksak nomga munosib bo'lishni o'rganadi, his etadi.

Aytgancha, okrugning "Farg'ona" dala-o'quv maydonida ham keng qamrovli o'quv jarayonlari tashkil etildi. Endi mavzuni aynan shu yerda kechgan tadbirlar bilan davom ettiramiz.

O'tgan hafta mobaynida poligonning turli o'quv nuqtalarida desantchilar parashyut bilan sakrash bo'yicha o'z mahoratini sinovdan o'tkazdi. Shu bilan bir qatorda, radiatsion, kimyoviy va biologik muhofaza bo'linmalari shartli zararlangan hududlarni razvedka qilish, xavfli o'choqlarni belgilash hamda ko'rsatilgan nishonlarni qisqa vaqt ichida bartaraf etish vazifalarini bajardi.

E'tiborga molik jihati shundaki, mazkur epizodlarning barchasi bir paytning o'zida olib borildi.

Harbiy xizmatchilarning shiddatli harakati, texnika ovozi va quyosh taftida osmonga o'rlagan chang poligon uzra haqiqiy jangovar muhitni yaratdi. Bunday sharoitda shaxsiy tarkibning jismoniy va ruhiy tayyorgarligi, shuningdek o'zaro hamkorlikda harakat qilish ko'nikmalari yanada charxlandi.

Ha, bu so'zlarda bo'rttirish ham, to'qima ham yo'q. Jazirama sahroda chang-u g'ubor kechib, tik tog' yonbag'irlarini qayta-qayta zabt etgan, sovuq tunlarda okop qazib, uzluksiz mashqlar va sinovlarda irodasini toblagan harbiylar hayoti ana shunday kechadi. Yelkadagi og'ir jangovar anjom, uzoq marshlar, uyqusiz tunlar va tinmas tayyorgarlik harbiyni jismonan ham, ruhan ham chiniqtiradi.

Vatanga bo'lgan muhabbat esa ana shu mashaqqatlarni yengib o'tishga kuch beradi. Qasamyod bilan mustahkamlangan, muqaddas farzandlik burchi bilan yo'g'rilgan bu tuyg'u harbiyning ko'ksini g'ururga to'ldiradi, qadamini mustahkamlaydi va or-nomusini har qanday sinovdan ustun qo'yishga undaydi.

**Kapitan
Shohrux SAIDOV,
"Vatanparvar"**



Chegara qo'shinlarida

Hamkorlikdagi taktik-o'quv mashg'ulotlari davlat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bugungi global geosiyosiy o'zgarishlar va mintaqaviy tahdidlar sharoitida davlat chegaralarining daxlsizligini ta'minlash va milliy xavfsizlikni mustahkamlash har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yurtimiz tinchligi, xalqimiz farovonligining bosh kafolati bo'lgan Qurolli Kuchlarimiz va kuch tuzilmalari har qanday tahdidga qarshi munosib zarba berishga shay. Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari va hamkorlikdagi kuch

SARHADLAR MUHOFAZASIDA MUSTAHKAM HAMKORLIK

kelgan tahdidlarni bartaraf etish bo'yicha qabul qilingan qarorlarga asosan, bo'linmalar o'rtasida uzluksiz va tezkor aloqani ta'minlash maqsadida mobil aloqa markazining imkoniyatlari muvaffaqiyatli sinovdan o'tkazildi.

Mazkur taktik-o'quv mashg'ulotlarining ahamiyati va

organlarining birgalikdagi ish samaradorligini oshirish, kuch va vositalarni har qanday sharoitda uzluksiz va markazlashgan holda boshqarishni takomillashtirishga qaratildi".

Harbiy strategiyaning eng muhim yo'nalishlaridan biri – bu favqulodda vaziyatlarda tinch aholi xavfsizligini ta'minlash. Ushbu o'quv rejasiga ko'ra, chegara oldi hududlarida istiqomat qiluvchi aholi vakillarining xavfsizligini tubdan ta'minlash, ularni muhofaza qilish chora-tadbirlari alohida nazoratga olindi.

O'quv mashg'ulotlari yakunida erishilgan yutuqlar va yo'l qo'yilgan kamchiliklar harbiy mutaxassislar

tomonidan atroflicha sarhisob qilindi. Bildirilgan taklif va tavsiyalar kelgusidagi jangovar o'quv rejalarini yanada mukammal va real vaziyatga yaqinlashtirilgan holda ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan bo'ldi.

Xulosa o'rniida aytish mumkin xavfsizlikni, yurt farovonligi va sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlash yo'lida barcha kuch tuzilmalarini yagona va muqaddas bir maqsad sari birlashtiradi. Vatan himoyasi – eng oliy mas'uliyat.

**Kapitan
Erkin YODGOROV**
DXX Chegara qo'shinlari



tuzilmalari ishtirokida o'tkazilgan navbatdagi qo'mondonlik-shtab o'quv mashg'ulotlari buning yaqqol isboti bo'ldi.

O'quv bo'yicha jangovar vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish maqsadida, birinchi navbatda, hamkorlikdagi kuch tuzilmalarining birlashgan boshqaruv shtabi tuzildi. Shtab tomonidan davlat chegarasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtimoliy vaziyatlar chuqur tahlil qilinib, shartli dushmanning maqsadi va harakatlar g'oyasi aniqlandi. Jangovar shaylikni yuqori bosqichga ko'tarish, shartli dushman guruhlarini tezkorlik bilan yo'q qilish va zararsizlantirish maqsadida puxta ishlangan jangovar harakatlar rejalari ishlab chiqildi.

Mashg'ulotlar davomida zamonaviy harbiy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlardan keng foydalanildi. Xususan, yuzaga

harbiy-siyosiy maqsadlari haqida DXX Chegara qo'shinlari mas'ul ofitseri podpolkovnik Aziz Saidov shunday deydi: "Qo'mondonlik-shtab o'quvlari doirasida davlat chegarasini qo'riqlash va himoya qilishning yagona tizim subyektlari bilan yaqin hamkorlikda chegara operatsiyasi tashkillashtirildi. Bunda asosiy e'tibor jalb etilgan birlashma va qo'shilmalar boshqaruv



O'quv-uslubiy yig'in

MALAKA, KO'NIKMA VA TAJRIBA SINOVNI



Vatan himoyasi yo'lida xizmat qilayotgan har bir harbiy xizmatchining kasbiy mahorati, jismoniy chiniqqanligi va har qanday vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyati Qurolli Kuchlar jangovar salohiyatining muhim omili hisoblanadi. Shu maqsadda Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlarida xizmat qilayotgan guruh komandirlari ishtirokida o'quv-uslubiy yig'in tashkil etildi.

Yig'in guruh komandirlarining nazariy bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko'nikmalarini yanada takomillashtirish, ilg'or tajribalarni ommalashtirish hamda zamonaviy jangovar harakatlarni boshqarish bo'yicha malakasini oshirishga xizmat qildi.

Yig'in davomida ishtirokchilar harbiy xizmatning turli yo'nalishlari bo'yicha sinovlardan o'tkazildi. Jumladan, jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarida 100 metrga suzish, 5 kilometr masofaga yugurish hamda boshqa me'yoriy mashqlar bajarildi. Saf tayyorgarligi bo'yicha

safda qurol bilan va qurolsiz harakatlanish, buyruqlarni aniq va mukammal bajarish ko'nikmalari baholandi.

Taktik-operativ tayyorgarlik mashg'ulotlarida jangovar vaziyatni tahlil qilish, hujumni tashkil etishda guruh komandirining vazifalari hamda bo'linmalarni boshqarish bo'yicha amaliy mashqlar bajarildi. Artilleriya tayyorgarligi yo'nalishida olovni boshqarish, nishonlarni aniqlash va o't ochishni muvofiqlashtirish bo'yicha bilim va ko'nikmalar sinovdan o'tkazildi.

Shuningdek, zamonaviy jangovar harakatlarning ajralmas qismi bo'lib borayotgan uchuvchisiz uchish apparatlaridan samarali foydalanish va ularni boshqarish, topografik oriyentirlash, joyni aniqlash hamda otish tayyorgarligi mashg'ulotlari bo'yicha ham test va amaliy sinovlar tashkil etildi. Har bir ofitserning bilim darajasi, kasbiy tayyorgarligi va boshqaruv salohiyati belgilangan mezonlar asosida baholandi.

Yig'in davomida bo'linmalarda sog'lom ma'naviy-ruhiy muhitni shakllantirish, harbiy xizmatchilarning ruhiy barqarorligini oshirish hamda murakkab vaziyatlarda qat'iyat

bilan harakat qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Psixologik tayyorgarlik mashg'ulotlari orqali guruh komandirlarining stressga chidamliligi, liderlik qobiliyati va shaxsiy tarkib bilan ishlash mahorati yanada mustahkamlandi.

Bugungi zamonaviy harbiy xizmat yuqori bilim, mustahkam

iroda, jismoniy chiniqqanlik va ilg'or texnologiyalarni puxta egallashni talab etadi. Ana shunday o'quv-uslubiy yig'inlar kichik komandirlarining kasbiy salohiyatini yangi bosqichga olib chiqib, har qanday vazifani yuqori mas'uliyat va fidoyilik bilan bajarishga tayyor bo'lgan malakali komandirlarni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati



✓ "Vatanparvar" xronikasi

Armiya: kecha va bugun

Ushbu maqola bundan salkam 35 yil muqaddam – 1992-yilda, O'zbekiston mustaqillikning ilk odimlarini tashlayotgan, "Davlat tili haqida"gi qonun endigina hayotga kirib kelayotgan bir davrda chop etilgan edi. Oradan shuncha yil o'tib, o'sha davr ruhini, turli millat vakillarining mustaqillikka hamda o'zbek tiliga bo'lgan munosabatini yana bir bor yodga olish bugungi kunimiz uchun ham g'oyat ahamiyatlidir.

BU BILAN HISOBLASHISH KERAK

Kursant V. ASTAXOV

"Vatanparvar" gazetasi, 1992-yil 4-avgust, 170-son



Men rusman, O'zbekistonda tug'ilganman va ota-onam shu yerda yashaydi. Ammo harbiy xizmatchining o'g'li, kursant sifatidagi taqdirim shunday kechdiki, bu respublikada doimiy yashash menga nasib etmadi. Shunga qaramay, har safar O'zbekiston zaminiga qadam qo'yar ekanman, bu yer mening Vatanim ekanini his qilaman. O'zbek quyoshining o'tkir nurlari ostida sayr qilish, ko'chalarda milliy musiqani eshitish va tandirda yopilgan issiq non hidini tuyish menga o'zgacha huzur bag'ishlaydi. Bugun O'zbekistonning mustaqillikka erishgani, o'z mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlagani meni chin dildan quvontiradi.

Biroq respublika rahbariyati tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar hammaga ham birdek yoqmayapti. Xususan, davlat tilini joriy etish masalasida turli e'tiroz va ikkilanishlar quloqqa chalinmoqda. Xo'sh, bu xavotirlar qanchalik asosli?

Ittifoq yillarida unutilgan qadriyatlarni qayta tiklash zarur. Xalqqa o'zining eng yaxshi an'analari, urf-odatlar, rasm-rusumlari, shu jumladan ona tili qaytarib berilishi kerak.

Endilikda suveren davlatda ekanimiz, biz uning qonunlariga bo'ysunishga majburmiz. O'zini hurmat qilgan har bir inson o'zi mehnat qilayotgan, farovonligi va ravnaqiga hissa qo'shayotgan xalqning tilini bilishi shart.

Yaqinda men butun umrini O'zbekistonda o'tkazgan inson Vladimir Ariyevich Rozental bilan uchrashdim. Onasi rus bo'lgani uchun bu til unga ona

tili hisoblanadi. Lekin u o'zbek va qoraqalpoq tillarini ham o'rganib olgan.

– Go'dakligimdan o'qoraqalpoq bolalari bilan birga o'ynab, daryoda cho'milib, ularning tilini o'rgananman. O'zbek tilini o'rganishga esa hayotning o'zi majbur qildi. Men shunday hisoblayman: vatandoshlarning ona tilini bilish kerak. Bu borada haydovchim Rustam juda katta yordam bergan. U bilan kichik bir kelishuvimiz bor edi: haftada bir kun faqat o'zbek tilida muloqot qilardik va bu tez orada o'z natijasini berdi. Boshqa davlatdagi hayotni boshqachasiga qanday tasavvur qilish mumkin? Zero bugun xorijsa jo'nab ketayotganlarning barchasi, eng avvalo, yonma-yon yashashi kutilayotgan xalqning tilini o'rganishga kirishadi, – deb hikoya qiladi V. Rozental.

Onam butun yoshligini O'zbekistonda o'tkazgan, mana endi yana qadrdon go'shasiga qaytdi. Bozorga tushib, sotuvchilarga o'zbekchada murojaat qilsa, ularning yuzidagi samimiy tabassumni ko'rib, dili yayraydi. Biz Boltiqbo'yida ham, Uralda ham yashab ko'rganmiz. Ammo onam o'zbek xalqining mehmondo'stligi-yu oqibatini hamisha alohida mehr bilan eslab yurardi. Bugun esa u ukamga o'zbek tilini o'rganishda yordam berib, milliy urf-odat va qadriyatlarimizning tub mohiyatini erinmay tushuntirib keladi.

O'zbekiston Respublikasi – mustaqil va erkin davlat. Uning asosiy ramzlaridan biri esa davlat tilidir.



Bugun ushbu maqolada ko'tarilgan masalalar naqadar haqqoniy bo'lganini vaqtning o'zi isbotladi. 1992-yildagi xavotir, bahs va ikkilanishlar ortda qoldi. Bugun o'zbek tili nafaqat davlat tili, balki mamlakatimizda yashayotgan barcha millat va elatlarni birlashtiruvchi mehr-oqibat va samimiyat rishtasiga aylandi. Barcha til va madaniyatlarga hurmat bilan qarash, bag'rikenglik va bahamjihatlik esa zamonaviy O'zbekiston jamiyatining eng oliy qadriyatlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Furqat ERGASHEV tayyorladi.





Qonun ustuvorligi

SUD VA ERKIN MATBUOT

Mamlakatimizda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning yangi bosqichida ommaviy axborot vositalarining sud hokimiyati bilan o'zaro munosabati masalasi alohida diqqat-e'tibor qaratishni talab etadi. Zero sud-huquq tizimini isloh qilishdek keng miqyosli o'zgarishlar avvalo har qaysi fuqaroning manfaatini himoyalaydigan qonun va normalar ommaviy axborot vositalari tomonidan yoritib borilishi zarur. Chunki aynan ommaviy axborot vositalarining jamoatchilik fikriga fuqarolarning huquqiy ongiga ta'sir o'tkazish hamda aholining huquqiy madaniyatini shakllantirishdagi o'rni va ahamiyati cheksiz.

Ommaviy axborot vositalari va sud hokimiyati o'z vazifalariga ko'ra turli faoliyatni amalga oshirsa-da, mazmun-mohiyati bilan demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati manfaatlari uchun xizmat qiladi. Shu bois ular huquqiy hamkorlik o'z oldilariga qo'yilgan murakkab vazifalarni ado etishlari qiyin. Ayni paytda sud-huquq sohasida olib borilayotgan islohotlar OAV tomonidan qo'llab-quvvatlanmay turib, muvaffaqiyatga erishishi mumkin emas. O'z navbatida, sudlar tomonidan jurnalistlarning qonuniy huquq hamda manfaatlari himoya qilinmas ekan, OAV to'liq erkinlikka erisha olmaydi.

So'nggi yillarda ommaviy axborot vositalari va ularda xizmat qilayotgan jurnalistlarning erkin faoliyat yuritishlari uchun qulay shart-sharoit hamda huquqiy asos yaratildi. **Ta'kidlash kerakki, sud hokimiyati va ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi o'zaro munosabat ikki masalada alohida o'rin tutadi:**

birinchisi, sudlarning transparentligi, ma'lumotlardan erkin foydalanishni ta'minlash;

ikkinchisi, jurnalistlar tomonidan sud protsessiga aralashuvga yo'l qo'ymaslik, sudyalarning mustaqilligiga daxl etmaslik yoki sudga ta'sir etuvchi salbiy holatlarning oldini olishdir.

Albatta, bu holat bir qator muammolarni yuzaga keltiradi. Chunki ayni shu masalada amaliyotchilar va nazariyachilar, OAV xodimlari va sudyalarning o'rtasida turli qarashlar mavjud. Ko'pchilik tadqiqotchilar OAV sud organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi zarur deb hisoblasa, ayrimlar sud faoliyati ustidan hech kim nazorat o'rnatishi mumkin emas, chunki har qanday nazorat sud mustaqilligiga raxna soladi, degan fikrni ilgari suradi. Har ikki qarashni ham inkor etmagan holda munozaraga sabab bo'layotgan ushbu masala yuzasidan ayrim mulohazalarni bildirib o'tish o'rinlidir.

Ommaviy axborot vositalarining sud ma'lumotlaridan erkin foydalanish huquqi sudlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati o'rnatish shakliga emas, sud xatolari ehtimolini kamaytirish vositasi hamdir. Afsuski, jurnalistika amaliyotida sud protsesslarini yoritish masalalari hamisha dolzarb muammo bo'lib kelgan. **Albatta, buning bir necha sabablari bor:**

birinchisi, OAVda sud protsesslarini yoritish o'ziga xos xususiyatlarga ega ekan;

ikkinchisi, OAVda sud protsesslarini yoritishning huquqiy asoslarini belgilovchi qonun hujjatlarida ayrim ziddiyatlarning mavjudligi;

uchinchisi, sud protsesslarini yorituvchi jurnalistlarning ixtisoslashuvi va kasb etikasi muammolari;

to'rtinchisi, OAVda sud protsesslarining yoritilishida jahon tajribasining o'rganilishi va amaliyotga joriy etilishi muammosi.

OAVda sud protsesslarini yoritishga doir nazariy va amaliy masalalarning, xususan huquqiy asoslarning o'rganilishi bugungi kun jurnalistika fanining dolzarb masalalaridan biridir. OAVda sud protsesslarini yoritishning huquqiy asoslarini tashkil etuvchi sud transparentligi, akkreditatsiya, aybsizlik prezumpsiyasiga amal qilish shartlari, jurnalist tekshiruv, diffamatsiya huquqi, raddiya, ma'naviy zarar kabi muhim institutlarning o'rganilishi hamda milliy qonunchiligimiz va amaliyotga tatbiq etilishi bu borada taklif va xulosalar ishlab chiqishni talab etadi. Negaki, mazkur institutlar zamonaviy jurnalistika sohasida alohida o'rin tutadi.

Shuningdek, ommaviy axborot vositalari vakillarining samarali faoliyat yuritishi, sud protsesslarini erkin yoritishlari xalqaro va milliy huquqning ta'siri hamda ahamiyatini konseptual o'rganishni taqozo etadi.

Jumladan:

sudlar faoliyatining oshkoraligini ta'minlash hamda aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishda jurnalistikaning o'rni va ahamiyati;

sud jarayonlarining ochiqligi va unda OAV xodimlarining ishtirokini ta'minlash muammolari;

ommaviy axborot vositalari vakillarining huquqiy savodxonligini oshirish zarurati;

kasbiy malaka – ham sudyalarning, ham jurnalistlarning uchun etika qoidalariga amal qilish majburiyatining bajarilishi;

sud protsesslarini yorituvchi jurnalist pozitsiyasida mustaqillik va xolislik masalalarini tadqiq etish hamda jurnalistlarning mazkur prinsiplarga amal qilish zarurati;

sud protsesslarini yoritishda OAV xodimlarining aybsizlik prezumpsiyasi prinsipiga amal qilish shartligi;

aybsizlik prezumpsiyasining OAV sohasiga doir qonunchilikdagi o'rni va o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqish hamda tahlil qilish;

sudlarda OAV xodimlari akkreditatsiyasining huquqiy asoslari hamda akkreditatsiya institutining afzalligi va muammolarini o'rganish zarurligi.

Aytish kerakki, so'nggi paytlarda sudlar o'z faoliyatining oshkoraligini ta'minlashga e'tibor qaratib boshladi. Ammo, afsuski, bu harakatlar sud protsesslarida OAVning ishtirokini kuchaytirgani yo'q.

O'zaro munosabatlardagi hamkorlik ham maqtagulik darajada emas.

Fikrimizcha, matbuotda chop etilayotgan huquqiy mavzudagi maqolalarning asosiy qismida jinoyat ishlarining tafsilotlari bilan cheklanib, jurnalistlar fuqarolik ishlariga, fuqarolarning buzilgan huquqlarini qonun tartibida tiklash masalalariga kamdan kam hollarda murojaat etmoqda. Natijada sudlar faoliyatining asosiy vazifasi bo'lmish fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish masalalari OAVda deyarli yoritilmasdan qolmoqda. Bu esa jamiyat a'zolari o'rtasida turli tushunmovchiliklar vujudga kelishiga sabab bo'lib, sud protsessini yorituvchi jurnalistlarning ixtisoslashuviga va kasb etikasi qoidalariga alohida e'tibor qaratishlarini talab etadi.

Amaldagi OAV faoliyatiga doir qonunchiligimiz jurnalistga axborotni izlash, olish va tarqatish huquqini beradi. Ammo u tergovchi, prokuror yoki sudyadan farqli o'laroq o'z manbasidan axborotni talab qilib olishga, biror bir protsessual harakatlar o'tkazishga haqli emas. Jurnalist tekshiruvini prokuror yoki tergovchining surishtiruvidan farqlay olish lozim. Bu harakatlar jurnalistga qonunchilik tomonidan berilgan huquq va majburiyatlar hamda jurnalistning so'z erkinligi mas'uliyati doirasida olib borilishi lozim. Jurnalist tomonidan sud jarayonlarining yoritilishi avvalo aybsizlik prezumpsiyasiga amal qilish, fuqarolarning sha'ni, qadr-qimmatini va obro'sini muhofazalash, sudyalarning mustaqilligini ta'minlash zarurligi bilan chegaralangan o'ziga xos xususiyatga ega.

Amaliyotda sudlar tomonidan yopiq bo'lmagan axborotlarni "maxfiylashtirish", sud protsesslariga qatnashish huquqini cheklash, yozib olishni asossiz ravishda rad etish, so'ralgan axborotni bermaslik, materiallar va hujjatlarni, ulardan nusxa olish huquqini cheklash kabi holatlarda ham e'tirozlar bildirilmoqda. Tabiiyki, bu kabi holatlar axborotni erkin olish huquqini cheklash deya baholanadi. Bu esa huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyati konsepsiyasiga zid bo'lib, Konstitutsiya va qonun normalarini buzish hisoblanadi.

Jurnalistning huquqlari, sha'ni va qadr-qimmatini qonun bilan qo'riqlanadi. Huquqiy davlat jurnalistga axborotni erkin olish va tarqatishni kafolatlaydi, o'z kasbiga doir faoliyatni amalga oshirishida uning himoya qilinishini ta'minlaydi. Jurnalistning faoliyatiga aralashish, undan o'z kasbiga doir

vazifalarni bajarish chog'ida olgan biror bir ma'lumotni talab etish taqiqlanadi. Jurnalistlarning bu kabi konstitutsiyaviy huquqlarni bilish zarurati shu bilan izohlanadiki, ular kasb taqozosi bilan doimo fuqarolik-huquqiy munosabatlarga kirishadi, ya'ni fuqarolarning turarjoyiga tashrif buyuradi, ular bilan suhbat quradi, shaxsiy va ijtimoiy hujjatlarni, ariza-shikoyatlarni, xatlar va tasvirlarni ko'zdan kechiradi.

Bu, o'z navbatida, jurnalistdan yuksak professionallikni, huquqiy madaniyatni talab etadi.

Afsuski, sudlarda OAV vakillari bilan ishlash bo'yicha aniq tizim ishlab chiqilmagani, barcha jurnalistlarga bir xil munosabat qilinmasligi (masalan, akkreditatsiyalash, sharhlar taqdim etish va hokazo masalalarda) ko'pincha malakali jurnalistlarning e'tirozlariga sabab bo'ladi. Bu kabi ayanchli ko'rinishlarning oqibatlari esa chop etilayotgan materiallar saviyasiga, o'zaro munosabatlarga putur yetkazishi, ixtiloflar keltirib chiqarishi mumkin. Ayni shu singari muammolar bir qarashda arziyasdek tuyulsa-da, odil sudlovni amalga oshirish va OAVning chinakam "to'rtinchi hokimiyat" darajasiga erishish yo'lidagi harakatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bu jarayonda OAV bilan sud hokimiyati o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida jurnalistlarning huquqshunoslik borasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirgan holda sud protsessini yoritishning huquqiy asoslarini belgilovchi qonun hujjatlaridagi ayrim ziddiyatlarni bartaraf qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi ta'sir faoliyatini kuchaytirish taklif qilinadi.

Bir so'z bilan aytganda, sud hokimiyatining ochiqligi demokratik davlatchilikning muhim sifat belgisi, mamlakatimizda qonun ustuvorligi va sud-huquq tizimini isloh qilishning ajralmas va tarkibiy qismidir.

**B. BABAKULOV,
O'zbekiston Respublikasi
Harbiy sudining sudyasi**



✓ Harbiy jang san'ati



MARD, JILOV YASAYDIGAN USTA QAYERDA?

IXTILOF

Sulh nima uchun kerak? Dunyodagi voqealarni barchaga yetkazish uchun har kuni millionlab so'zlar bir lahza ham tin bilmay ishlaydi. Ammo "sulh" so'zi ular orasida onda-sondagina uchrab qoladi. Go'yo unga xizmat yo'qday. Bu so'zni eshitganda yer kurrasida bir yaxshilik sodir bo'lganini yurak bizdan so'roqsiz his qiladi. Ixtilof aksincha, uni bezovta qiladi. Ixtilof og'ir va xosiyatsiz yukini vujudga yuklaydi. Sulh yangraganda, yurak shu yoqimsiz og'irliklardan xalos bo'ladi.

Fiqh asarlarida "Ixtilof" (kelishmovchilik) masalasi xususiyatlari 45–50-bandda maxsus tushuntiriladi. Ajdodlarimiz qariyb 1,5 ming yildan beri ularga tayanib, kelishmovchiliklarni bartaraf qilishga urinadi. Ularning orasida ixtilof yechimini belgilash uchun: **"Kiygan kishi kiyim egasidir, yengidan tutgan emas", "Otning tizginini tutgan emas, mingan egasidir"** kabi misollar ham o'rin olgan.

Ba'zan ixtiloflar davlatlar o'rtasida sodir bo'ladi. Urushga aylanib ketganlari ham ko'plab uchraydi. Bunday fojialarni to'xtatish uchun hamma zamonlarda "sulh" kerak bo'lgan. Xoja Ubaydulloh hazratlari ham shunday jarayonlarda ishtirok etgan, muammoni sulhga qadar yetkazib, taraflarni tinchlikka erishtirgan.

OQ BAYROQ

Xoja derdi: "Shayxlikni ixtiyor qilganimizda, bu zamonda birorta murshid murid topolmay qolardi. Ammo bizga zulm tajovuzidan mo'minlar va miskinlar himoyasida turish buyurilgan. Podshohlar ishiga aralashuvimiz shu sabablidir. Vazifamiz

ularning nafslarini mag'lub etishga ko'maklashuv va shu yo'l bilan musulmonlar eминligini saqlashdir".

Bu so'zlar Hazratning Oq bayrog'idir. U yer yuzida zulmlar tugamaguncha pastga tushirilmaydi. Eranlardan birining qo'lida baland hilpirab turaveradi. Janglarning buyugi – Tangri taolo huzurida ikki tarafga ham shafe bo'luvchi Sulhga erishmakdir.

JILOVLANGAN QUVVAT VA XITOIY XOQONI

Yana dedi: "Haq taolo bizga in'om etgan karomat quvvati cheklanmagan va o'zgalar tasarrufidan xolidir. Istasam, bir imo bilan jahonbonliq da'vosini qilayotgan Xitoy podshohi saltanatini tark etib, yalangoyoq tikanzor-u dala-dashtlarni oralab, ostonamga kelib bosh uradi.

Ammo hamisha bu quvvatni jilovlab, Tangri taolo farmoniga muntazirman. U xohlasagina bu quvvat qo'zg'aladi.

Bu maqomning adabiga rioya etmak shartdir. Maqom sohibi shafqatli Tangri irodasiga tobe bo'ladi yo Haq taolo istagini o'z irodasi tasarrufiga kiritadi".

"Hozir nafslar tizgini uzilgan. Ularni niqtalaydigan Mard, jilov yasaydigan Usta qayerda?" deb kekxa Jangchi yosh alp o'g'longa tushuntirayotir. "Yog'iyga bo'yin egib yashalgan hayotda Sulh bo'lmaydi. Qullik o'shadir".

So'zlar emas... Biz qo'rqib, uyalishimiz kerak. Arxaik olamga do'nayotgan bizning hayotimizdir. Besh-o'n asrdan keyin ham Xoja Ubaydulloh Ahror haqidagi hikoyalar dasturxon boshida, davralarda so'zlanaveradi.

QABOHAT

Maqolada bunday sarlavha paydo bo'lishini sira xohlamagandim. Bir necha marta o'zgartirishga urindim. Ammo bu voqealar XV asrning ikkinchi yarmida ko'hna Turon davlatida yuz bergan. Ularni boshqa nom bilan atab bo'lmadi. Ularda Xoja Ubaydulloh Ahror ham ishtirok etgandi. Mirzo Ulug'bek davri bilan qiyoslanganda ushbu hodisalarning ko'payib ketgani qanchalar fojiali va tuban ekani ko'zga yaqqol tashlanadi. Mirzoning millatni yuksaltirish yo'lida bajargan o'ta mashaqqatli va buyuk xizmatlari ham bor bo'yi bilan aniqroq namoyon bo'ladi.


Shu voqealardan biriga nazar solamiz. Yog'iy chetdan kelmagandi. Bu qabohat mamlakat ichkarisida – aka-uka temuriy sultonlarning o'zaro nizolaridan paydo bo'lgandi. U kundan kun kuchayib borar, ayanchli tusga kirib, bir vaqtlar gullab-yashnagan yurti xarob qilayotgandi. Uni butkul daf etishga hatto Hazratning qurbi yetmadi. Biroq ba'zilarini yo'q qilishda muvaffaqiyatlarga erishdi.

O'shanda sulton Ahmad Mirzo va Mirzo Umarshayx o'zlari soyasida ulg'aygan, rohatidan bahramand bo'layotgan ulkan saltanat daraxti tanasini o'tkir bolta bilan chopishga kirishib ketgandi. Bu bema'ni ishga Mirzo Umarshayxning qaynog'asi Toshkent hukmdori sulton Mahmudxon ham qo'shiladi.

URUSH... VA SULH

Faxriddin Ali Safiy mazkur voqea tafsilotini Hazratning bosh xalifasi Muhammad Qozi Samarqandiy yozganlaridan ko'chirib olgan.

"Bu maqola Hazrat bir ma'rakada sulton Ahmad Mirzo, Mirzo Umarshayx va "Xonika"



Suratlar sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

nomi bilan tanilgan sulton Mahmudxonni sulhga keltirgani to'g'risidagi qissadir. Mavlona Muhammad Qozi "Silsilat ul-orifin"da Mirzo Umarshayx akasi bilan urushmoqchi bo'lib, Dasht xoni sulton Mahmudxonni yordamga chaqirib, qo'shini bilan Shohruxiyada qarorgoh tikkani haqida Samarqandga xabar kelganini yozadi. Sulton Ahmad Mirzo ham katta qo'shin to'plab, urush aslahalarini hozirlab, Shohruxiya tarafga yo'l oladi. U iltimos qilib, Hazratni o'ziga hamroh etadi.

Odamlar orasida Mirzo urush qilmaslik va yog'iy bilan sulh tuzish uchun Hazratni olib ketgani to'g'risida gap tarqaladi. Hazrat qirq kun sulton Ahmad qo'shini safida bo'ldi. Qo'shin Shohruxiyaga qarashli Oqqo'rg'on mavzesida qarorgoh tikkandi. Mirzo jang istagida to'plangan g'addorlarning katta izdihomida Hazratning xodim va mulozimlariga odobsizlik sodir etilishidan xavotirlanib, ularni yonida olib yurdi.

Hazrat bir kuni tund kayfiyatda sulton Ahmadga: "Meni bu yerga nima uchun olib keldingiz? Men urush odami emasman. Savashmoqchi bo'lsangiz, bu yerda nima keragim bor? Sulh tuzmoqchimisiz, nega orqaga suryapsiz? Qo'shin orasida yuraverishga majolim qolmadi", dedi.

Sulton Ahmad: "Ixtiyor menda emas, barcha ish mulozimlaringiz ra'yiga qarab bo'ladi. Ular nimani yaxshiroq deb bilsa, shunga amal qilishdan o'zga choram yo'q", deb uzrxohlik bildirdi.

Hazrat hamrohlari bilan maslahatlashib, otlandi. Men ergashdim. Boshqa xodimlari qarorgohda qoldi. Hazrat Mirzo Umarshayx va sulton Mahmud Mirzo tarafga yo'lga tushdi. Ular bundan xabardor bo'lib, yarim yo'lda peshvoz chiqdi va hammasi birgalikda Shohruxiyaga ketdi. Hazrat bu uchrashuvda sulton Mahmudxonga ko'proq nasihat qildi, qattiq gapirdi, aksar vaqtini uni murosaga keltirishga sarfladi.

Nihoyat, sulhga qaror qilindi. Kelishuvga ko'ra, lashkar bir-biriga yuzlanib saf tortadi. O'rta sulh chodiri tikiladi va ikki taraf sultonlari teng sonli odamlari bilan o'sha joyda uchrashadi. Hazrat vositasi va guvohligida sulh ahdi tuziladi. Bu so'zlardan so'ng Hazrat iziga qaytdi. Sulton Mahmud Hazratning tasarrufi natijalari mushohadasi bilan band bo'ldi.

Tong chog'i sulton Ahmad Mirzo qo'shini qo'zg'aldi. Sovut kiymasdan boshqa aslahalar bilan Qahqaha tepaligida saf tortish buyurildi.

Hazrat sulton Mahmudxon va Umarshayx Mirzoni olib kelish uchun yana Shohruxiyaga bordi. Sulton Mahmudxon tez tayyor bo'ldi. Umarshayx Mirzo nimanidir o'ylab, ro'yxush bermay taysalladi. Hazrat meni Mirzo sulton Ahmad huzuriga jo'natdi. "Umarshayx nimanidir rejalab, uchrashuvga unchalik xohlamay kelayotgani, har narsaga tayyor turing, bizga juda ishonib qolmang", deb ogohlantirishimni tayinladi. Janob payg'ambar sallallohu alayhi vasallam aytganidek: "Tavakkal tushovdir!" Misra:

Ba tavakkul zonuyi ushtur biband.

(Tavakkal Tuya tizzasi tushovidir).

Mirzoning oldiga bordim va xabarni yetkazdim. U lashkarini tartibga solish bilan ovora edi. Ancha vaqtdan so'ng qo'shinlar yuzma-yuz saf tortdi. Ular sovutlarsiz boshqa aslahalar bilan urushga tayyor edi.

Hazrat xodimlari va mulozimlari bilan ikki qo'shin o'rtasida edi. Sulh chodiri tiklanguncha ko'p gap-so'zlar bo'ldi. Har ikki taraf uning o'ziga yaqinroq turishi talabida edi. Tortishuv cho'zilib ketdi.

Hazrat peshin namozi adosi uchun ikki qo'shin safi o'rtasida tahorat qildi. So'ngra faqirga sulton Ahmad Mirzoga borib: "Men kuchdan

qolgan keksa kishiman. Barcha urush anjomingizni yelkamga oldim. Endi urush qilmaysiz. Bundan ortig'iga quvvat qolmadi. Tortishuvingiz toqatni toq qildi. Bizga ishonchingiz bo'lsa, qo'ying, sulh chodirini qayerda xohlashsa, o'sha yerga o'rnatishsin!" deb aytishimni buyurdi.

Bu gaplarni yetkazganimda sulton Ahmad: "U odamlar qayerni xohlasa, sulh chodiri o'sha yerga tikilsin. Men Hazratga ishonaman", dedi.

Sulh chodiri o'rta qurildi.

Sulton Ahmad Mirzo bir necha xos kishilari bilan unga kelib o'rnashdi. So'ngra Hazrat bordi. Sulton Mahmudxon ittifoqchisi Mirzo Umarshayxni boshlab keldi. Ularning odamlari ham kelishuvga binoan, sulton Ahmad kishilari bilan barobar edi. Sulh chodiri yaqiniga kelib otdan tushdilar. Sulton Ahmad a'yonlari bilan ularning oldiga chiqdi. Hazrat avval sulton Mahmudxonni boshlab kelib, sulton Ahmad bilan ko'rishtirdi. Ular quchoqlashdi. Umarshayx Mirzo ko'rishayotib, akasining qo'lini yuziga surtib yig'lab yubordi. Mirzo sulton Ahmad uning bo'ynidan quchib, ukasini o'pib yig'lardi. Bu holdan mutaassir bo'lib, atrofda gilar ham ko'zyoshlarini tiya olmadi. Bu jamoa o'rtasida ajib intizorlik va mehr-u oqibat sodir bo'ldi. Shundan so'ng sulh chodirida o'tirishdi. Yig'in shunday haybatli edi... Sust bosib, qo'rquv hayajonidan faqirning qo'lidan dasturxon tushib ketdi.

Tashqarida ot ustida ikki yog'iy lashkar bir ishoraga mahtal, sabrsizlik bilan bir-biriga tashlanishga shay turardi.

Yeguliklar keltirdik. Taomdan keyin bir ahdda to'xtashdi va Sulh tuzildi. Hazrat sulton Ahmad Mirzodan Toshkandni Xonika uchun so'rab oldi. Ahdnomani men yozdim. Fotiha o'qib, o'rinlaridan turishdi".

ZULM

Aka-uka sultonlar qilmoqchi bo'lgan ish – yurtga vayronalik keltiruvchi, minglab xonadonlarni baxtsizlik va kulfat girdobiga g'arq etuvchi, Davlatni qulatuvchi Urush edi. Muarrir odamlar uzoq vaqt "yuz mingdan oshiqroq jon olar jangchi o'sha kuni hech kimning jonini olmagan va o'zlari ham omon qolganini" gapirib yurgani haqida yozadi.

Qabohat yurakning ma'rifat yog'dulari yetib bormagan zulmatli xilvatlarida paydo bo'ladi. Bir kuni tashqariga Zulm bo'lib chiqadi. Shohruxiyadagi bu Sulh Turon hududidan zarar yetkazishga yo'l bermay, katta Urushni supurib tashladi. Sulh deganlari mana shunday bo'ladi. Xoja Ubaydulloh ularning bir nechtasini amalga oshirgandi.

DARS

Yana bir Zulm bartaraf etildi. Hazrati Xoja xonaqohida odatdagidek suhbat boshlandi. Mavzu "sulh" masalasi bo'ldi... Olti asrlik masofadan biz ham bu darsni tinglashga urinamiz. Fiqhga oid kitobni varaqlaymiz. Mashhur "Muxtasar" asarida "sulh" masalasiga 37 band ajratilgan ekan. U "Sulh nizoni daf qiluvchi Ahddir. "Sulh"ning asosi "salah", a'mol va holning tuzukligini anglatadi", deb boshlanadi. "Sulh"ning xilofi "muxosama"dir. U "janjallashuv", "talashuv"ni ifodalaydi.

"Islah", "islohot" ham "salah"dandir. Harbiy soha islohoti, soliq islohoti, huquq islohoti, ta'lim islohoti... barchasi birikkanda Jamiyat islohoti voqe bo'ladi. Ma'rifat shaxsni har kuni, har soat, har lahza isloh qiladi.

Shu tariqa Xoja xonaqohidagi darsdan istalgan asr ilm tolibi hozirgacha bahra olayotganiga guvoh bo'ldik.

**Abdusattor JUMANAZAR,
O'zR FA Abu Rayhon
Beruniy nomidagi
Sharqshunoslik instituti
katta ilmiy xodimi**



✓ Mustaqillik bayoti

YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO'LIB, YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!

Tarix sahifalarida har bir xalqning o'z taqdirini belgilagan, avlodlar xotirasida abadiy yashaydigan muqaddas sanalari bo'ladi. Biz uchun ana shunday eng aziz va eng ulug' ayyom – O'zbekiston davlat mustaqilligi e'lon qilingan kundir.

Yillar o'tdi, dovonlar oshildi, sinovlar mardonavor yengib o'tildi. Bugun esa xalqimiz o'z ozodligi va mustaqilligining shonli 35 yilligini qarshi olmoqda. Bu shunchaki taqvimdagi sana yoki tantanali bayram emas. Bu xalqimizning asriy orzulari ro'yobga chiqqan, o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga ega bo'lgan, dunyo hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini topgan buyuk millat tarixidagi ulkan voqeadir.

Mustaqillik bu o'zlikni anglash, milliy g'ururni tiklash, o'z tariximiz, tilimiz va qadriyatlarimizga egalik qilish, dunyoga o'z so'zimizni ayta olish huquqidir. Mana, 35 yildirki, biz erkinlik havosidan nafas olaymiz, o'z tilimizda so'zlayamiz, tariximizni o'rganyapmiz, milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylayapmiz va kelajagimizni o'z qo'limiz bilan bunyod etyapmiz.

Biz oddiy bir hududda yashamayapmiz. Biz har bir qarichida millatning g'ururi, ajdodlar dardi, buyuk tafakkuri va matonati yashiringan muqaddas zaminda yashayapmiz. Bu insoniyat sivilizatsiyasi beshiklaridan biri, tuprog'idan buyuk allomalar, daho va donishmandlar yetishib chiqqan, ilm-fan va ma'rifat taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan O'zbekistondir.

Biz Amir Temur jasoratini, Jaloliddin Manguberdi mardligini, buyuk allomalarimizning ilmga bo'lgan cheksiz intilishini, ajdodlarimizning or-nomusi va matonatini qalbimizda olib kelayotgan avlodmiz. Shuning uchun ham Mustaqillik biz uchun nafaqat faxr, balki ulkan mas'uliyat hamdir.

Zero mustaqillikni qo'lga kiritish qanchalik buyuk tarixiy voqea bo'lsa, uni asrab-avaylash, mustahkamlash va kelajak avlodlarga yanada qudratli davlat sifatida topshirish undan-da ulug' vazifadir.

Biz turli millat va elatlar vakillari bo'lsak-da, yagona Vatan taqdiriga daxldor, yagona xalq sifatida birlashganmiz. Xalqni faqat hudud yoki til emas, balki umumiy tarix, umumiy taqdir, umumiy quvonch va umumiy maqsad birlashtiradi. Birimizning yutug'imiz – butun millatning sharafiga, birimizning dardimiz butun yurtning qayg'usidir. Bizni birlashtirib turgan eng buyuk va muqaddas rishta O'zbekistondir.

Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib qadam tashlash – bu shunchaki shior emas. Bu bizning kuchimiz, birdamligimiz va kelajakka bo'lgan qat'iy ishonchimizdir. Bugun Yangi O'zbekiston haqida gapirganda, biz shunchaki balandparvoz so'zlarni emas, hayotimizda ro'y berayotgan aniq o'zgarishlarni ko'z oldimizga keltiramiz.

Yangi O'zbekiston bu mahallalarda bunyod etilayotgan yangi maktab va bog'chalar, zamonaviy tibbiyot maskanlari, obod

bo'layotgan qishloq va shaharlar, yangi ish o'rinlari, tadbirkorlikni boshlayotgan yoshlar, zamonaviy kasblarni egallayotgan qiz-u yigitlar, ilmiy izlanish olib borayotgan olimlar, xalqaro maydonlarda O'zbekiston bayrog'ini baland ko'tarayotgan sportchilar va o'z orzusini ro'yobga chiqarish uchun imkoniyatga ega bo'layotgan millionlab yurtdoshlarimizdir.

Yangi O'zbekiston bu inson qadri ulug'langan, yoshlarning tashabbusi qo'llab-quvvatlanayotgan, bilim va kasb egallash uchun keng imkoniyatlar yaratilayotgan, har bir insonning mehnati va intilishi qadrlanayotgan yangi hayot tarzidir. Bugun yoshlarimizga zamonaviy kasblarni o'rganish, xorijiy tillarni egallash, tadbirkorlik bilan shug'ullanish, ilmiy izlanish olib borish, innovatsion loyihalarni amalga oshirish va xalqaro maydonda o'z salohiyatini namoyon etish uchun keng yo'l ochilmoqda. Kecha o'z mahallasida oddiy tashabbus bilan chiqqan yosh bugun zamonaviy kasb egasi, tadbirkor yoki loyiha muallifiga aylanmoqda. Kecha ilm olish uchun imkoniyat izlagan talaba bugun xalqaro tanlovlar, ilmiy konferensiyalar va nufuzli loyihalarda O'zbekiston nomini munosib himoya qilmoqda.

Bu Yangi O'zbekistonning hayotdagi haqiqiy qiyofasidir. Bugun mamlakatimiz taraqqiyotining eng katta kuchi uning bilimli, tashabbuskor va vatanparvar avlodidir. Chunki zamonaviy dunyoda davlatning qudrati faqat uning tabiiy boyliklari yoki bunyod etilgan inshootlari bilan emas, balki xalqining bilim va salohiyati bilan belgilanadi. Shu bois bugun maktabda ta'lim olayotgan o'quvchi, oliy ta'lim dargohida tahsil olayotgan talaba, ilmiy izlanish olib borayotgan yosh olim, o'z kasbini puxta egallayotgan mutaxassis, halol mehnati bilan oilasi va jamiyatiga naf keltirayotgan har bir yurtdoshimiz Yangi O'zbekiston bunyodkoridir. Kelajak bizni uzoqdan kutib turgan mavhum bir manzil emas.

Kelajak bugun yaratilmoqda. U maktab partalarida, oliy ta'lim auditoriyalarida, ilmiy laboratoriyalarda, ishlab chiqarish korxonalarida, tadbirkorlik loyihalarida, yoshlarning orzularida va xalqimizning fidokorona mehnatida shakllanmoqda. Bizga hech kim tayyor kelajakni hadya qilmaydi. Uni o'zimiz quramiz: o'qituvchi o'z bilimi va fidoyiligi bilan, olim o'z kashfiyoti bilan, talaba o'z intilishi bilan, tadbirkor o'z tashabbusi bilan, ishchi o'z mehnati bilan. Har bir fuqaro o'zining halolligi, mas'uliyati va Vatanga sadoqati bilan bu buyuk kelajakni barpo etadi.

Biroq bunyodkorlik va taraqqiyotning eng muhim sharti tinchlik va osoyishtalikdir. Tinch osmon, xotirjam hayot,



yurtimiz sarhadlarining daxlsizligi barcha ezgu ishlarimizning mustahkam poydevoridir.

Ana shu tinchlik va osoyishtalikni asrash yo'lida yurtimiz sarhadlarida tun-u kun sergak turgan mard va jasur harbiylarimizning xizmatlari beqiyosdir. Ularning fidokorona xizmati tufayli millionlab yurtdoshlarimiz osuda hayot kechirmoqda, farzandlarimiz ta'lim olmoqda, bunyodkorlik va taraqqiyot ishlari davom etmoqda. Sarhadlarimiz daxlsizligi yo'lida xizmat qilayotgan har bir harbiy xizmatchining jasorati va sadoqati xalqimizning umumiy g'ururidir.

Vatan himoyasi esa har bir fuqaroning muqaddas burchidir. Kimdir yurti sarhadlarda qo'riqlaydi, kimdir ilm bilan, kimdir halol mehnat bilan, yana kimdir o'z kasbi va fidoyiligi bilan O'zbekiston ravnaqiga xizmat qiladi.

Bugun biz mustaqillikning 35 yilligini qarshi olar ekanmiz, faqat o'tmish bilan faxrlanib qolmay, kelajak oldidagi mas'uliyatimizni ham chuqur anglashimiz kerak. Buyuk ajdodlarga munosib bo'lish uchun buyuk ishlar qilish kerak. Tarix bilan faxrlanishning eng oliy ifodasi yangi tarix yaratishdir.

Biz hali kelajak avlodlar faxr bilan eslaydigan ulkan bunyodkorlik tarixini yaratamiz. Chunki bizning ortimizda buyuk tarix bor, qalbimizda Vatan ishq bor, sarhadlarimizda yurt tinchligini asrayotgan mard va jasur posbonlarimiz bor, oldimizda esa buyuk kelajak bor.

Bizni hech kim to'xtata olmaydi! Chunki biz birgamiz. Biz yagona xalqmiz. Bizning Vatanimiz bitta – O'zbekiston! Bizning maqsadimiz bitta – tinch, obod, erkin va farovon kelajak! "Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!" Bu bugungi kunimizning da'vati, ertangi kunimizning ishonchi va buyuk kelajagimizning mustahkam poydevoridir.

Jamshid NAZAROV,
Termiz davlat universiteti
O'zbek filologiyasi fakulteti tyutori

✓ Vatan tuyg'usi

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi markaziy apparatida "Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!" shiori ostida "Shukronalik – baxtli hayot kaliti" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi.

Mazkur tadbir mamlakatimiz bo'ylab o'tkazilayotgan "Mustaqillik to'yi" festivali doirasidagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar mazmuniga hamohang ravishda bo'lib o'tdi. Tadbirda O'zbekiston xalq artisti, Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti professori, teatr va kino aktrisasi Gavhar Zokirova hamda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoira, Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi a'zosi Zulfiya Mo'minova ishtirok etdi.

Tadbir avvalida so'zga chiqqanlar xalqimizning ko'p asrlik orzu-intilishlari ro'yobi bo'lgan mustaqillik tufayli yurtimizda tinchlik va osoyishtalik, bunyodkorlik hamda izchil islohotlar amalga oshirilayotgani, shukronalik tuyg'usi esa jamiyat taraqqiyoti va Vatan ravnaqi yo'lida muhim ma'naviy omillardan biri ekanini alohida ta'kidladi.

Mehmonlar o'z chiqishlarida shukronalik, Vatanga sadoqat, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, tinchlikning qadriga yetish hamda yosh avlodni yuksak ma'naviyat ruhida tarbiyalash masalalariga alohida to'xtalib o'tdi.



BAXTLI HAYOT KALITI



Shuningdek, yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar va yaratilayotgan imkoniyatlar har bir yurtdoshdan daxldorlik, mas'uliyat va fidoyilikni talab qilishi qayd etildi. Tadbir davomida mavzuga oid maxsus videorolik namoyish etilib, ishtirokchilar bilan ochiq muloqot tashkil qilindi.

Mazkur ma'naviy-ma'rifiy tadbir harbiy xizmatchilar va vazirlik xodimlarining ma'naviy dunyosini yanada boyitish, ularda shukronalik, Vatanga muhabbat va xalq manfaatlariga sadoqat tuyg'ularini mustahkamlashga xizmat qildi.

Ro'ziqul OCHILOV,
"Vatanparvar"

✓ Shukronalik darsi



VATAN TAQDIRIGA DAXLDORLIK

Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan "Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!" shiori ostida davlat va jamoat tashkilotlari, harbiy qismlar hamda ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, "Shukronalik darslari" o'tkazilmoqda.

Xususan, Mudofaa vazirligi Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligiga qarashli Toshkent shahri hamda Buxoro viloyatining Qorako'l tumanida joylashgan harbiy qismlarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini harbiy xizmatchilarga keng tushuntirish,

ularda Vatanga sadoqat, yuksak fuqarolik mas'uliyati va islohotlarga daxldorlik tuyg'usini yanada mustahkamlash maqsadida "Ortga qaytmas islohotlar" mavzusida davra suhbatlari tashkil etildi.

Tadbirlarda mudofaa vazirining o'rinbosari general-mayor Hamdam Qarshiyev, Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondoni

polkovnik Jur'at Yakubov va boshqa ofitserlar, serjantlar, muddatli harbiy xizmatchilar hamda Qurolli Kuchlar tizimida faoliyat yuritayotgan ishchi-xizmatchilar ishtirok etdi.

Davra suhbatida ta'kidlanganidek, Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar inson qadrini ulug'lash, xalq farovonligini ta'minlash va mamlakat mudofaa salohiyatini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, Qurolli Kuchlarning jangovar shayligini oshirish, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, ularning yashash va xizmat qilish sharoitlarini yaxshilash, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashi uchun yaratilayotgan imkoniyatlar bu islohotlarning amaliy samarasidir.

Tadbirda so'zga chiqqanlar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ortga qaytmas islohotlar har bir harbiy xizmatchidan yanada yuksak mas'uliyat, intizom va fidoyilikni talab qilishini alohida ta'kidladi. Vatan tinchligi va xalq osoyishtaligini ta'minlashdek sharaflı burchni sidqidildan ado etish har bir harbiy xizmatchining muqaddas vazifasi ekanini e'tirof etishdi.

Davra suhbatı savol-javoblar va ochiq muloqot ruhida o'tib, ishtirokchilar mamlakatimiz taraqqiyoti, milliy xavfsizlikni ta'minlash hamda Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida harbiy xizmatchilarning o'rni va mas'uliyati yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Shahnoza SULTONOVA
TOQQQ matbuot xizmati

 Mafkuraviy poligon


VATAN HIMOYASI QALBDAN BOSHLANADI

Poligon deganda ko'z oldingizda, hech shubhasiz, jangovar texnika va mashaqqatli jismoniy mashg'ulotlar gavdalanadi. "Mafkuraviy poligon" haqida-chi, biron nima eshitganmisiz? Bu qanday makon ekani sizga ham qiziq, to'g'rimi?

Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Quruqlikdagi qo'shinlar institutida "Mafkuraviy poligon" xonasi o'z faoliyatini boshladi. Qisqa vaqt ichida ushbu loyiha yuqori ijobiy natijalarni ko'rsatdi. Har bir xayrli g'oyaning o'z muallifi bo'lganidek, "Mafkuraviy poligon" loyihasini amaliyotga tatbiq etgan inson bo'lajak harbiy olim podpolkovnik Shaxboz Nizamitdinovdir. Shaxboz ayni paytda ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqda.

– Poligon deganda odatda qurol-yarog', harbiy texnika va jismoniy tayyorgarlik tasavvur qilinadi. Unda "mafkuraviy poligon" nima? Bu g'oya yaratilishiga qanday ehtiyoj sabab bo'ldi?

– Haqiqatan ham "poligon" deganda ko'pchilikning ko'z oldiga jangovar tayyorgarlik, qurol-aslaha, harbiy texnikalar va jismoniy mashg'ulotlar keladi. Biroq bugungi murakkab axborot makonida janglar faqat qurol bilan emas, balki ong, tafakkur va e'tiqod uchun ham kechmoqda. Shu bois zamonaviy harbiy xizmatchi nafaqat jismonan chiniquqan, balki mafkuraviy jihatdan ham mustahkam bo'lishi zarur.

"Mafkuraviy poligon" g'oyasi aynan ana shu ehtiyojdan kelib chiqqan. Uni shaxsning axloqiy-ruhiy barqarorligini, tanqidiy fikrlashini, axborotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini hamda Vatanga sadoqatini interfaol usullar orqali shakllantirish va mustahkamlashga xizmat qiladigan innovatsion ta'lim maydoni deb ta'riflash mumkin. Mazkur tizimda harbiy xizmatchi shunchaki nazariy ma'lumotni eshituvchi emas, balki turli hayotiy va xizmat faoliyatiga oid vaziyatlarni tahlil qiluvchi, mustaqil qaror qabul qiluvchi va o'z pozitsiyasini asoslay oladigan faol ishtirokchiga aylanadi.

Bu jarayonda tarixiy xotira, vatanparvarlik, mafkuraviy immunitet va jangovar ruhni mustahkamlashga qaratilgan interfaol metodlar qo'llaniladi. Oddiy qilib aytganda, agar an'anaviy poligonda harbiy xizmatchining jismoniy va jangovar mahorati charxlansa, "Mafkuraviy poligon"da uning tafakkuri, e'tiqodi, axloqiy-ruhiy barqarorligi va jangovar ruhi chiniqtiriladi.

– Ushbu poligonni yaratish g'oyasi qanday tug'ildi?

– Men uchun dissertatsiya shunchaki ilmiy yangiliklar yaratish emas, balki amaliyotda o'z samarasini bera oladigan ilmiy yechim yaratish imkoniyati edi. Shu sababli tadqiqot davomida ishlab chiqilgan g'oyalar qog'ozda qolib ketmasligi, balki bevosita harbiy ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi kerak, degan qat'iy maqsadni oldimga qo'ydim. "Mafkuraviy poligon"ni yaratish avvalo ilmiy tahlildan boshlandi. Mavjud tizim o'rganildi, xorijiy tajribalar tahlil qilindi, zamonaviy mafkuraviy tahdidlar va harbiy ta'lim ehtiyojlari chuqur o'rganildi. Shundan so'ng konsepsiya, metodik yondashuvlar, tashkiliy algoritm, baholash mezonlari va interfaol metodlar bosqichma-bosqich ishlab chiqildi. Keyingi bosqichda ushbu ilmiy g'oyalar asosida poligonning loyiha chizmalari tayyorlanib, amaliy shaklga keltirildi. Bugungi kunda "Mafkuraviy poligon" zamonaviy o'quv-amaliy maydon sifatida faoliyat yuritmoqda. Unda nafaqat harbiy xizmatchilar, balki fuqaro yoshlarimiz ham tarixiy xotira, vatanparvarlik, tanqidiy fikrlash, mafkuraviy immunitet va jangovar ruhni mustahkamlashga qaratilgan mashg'ulotlarda faol ishtirok eta oladi.

Mashg'ulotlar an'anaviy ma'ruza shaklida emas, balki "Jangovar g'oyaviy keys", "G'oyaviy ring", "G'oyaviy kurash simulyatori" va shu kabi bir nechta interfaol metodlar asosida tashkil etiladi. Har bir bosqich yakunida ishtirokchilarning bilim, ko'nikma va mafkuraviy tayyorgarlik darajasi ishlab chiqilgan baholash metodikasi asosida aniqlanadi.

– Tarkibiy qismlar haqida ham to'xtalsangiz. Unda kursantlar qanday mashg'ulotlar olib boradi?

– "Mafkuraviy poligon" "Tarixiy", "Vatanparvarlik", "G'oyaviy ring" va "Yangi O'zbekiston" bo'limlaridan tashkil topgan. Har bir bo'lim tarixiy xotira, Vatanga sadoqat, mustaqil fikrlash, mafkuraviy immunitet hamda zamonaviy islohotlarning mazmun-mohiyatini anglash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mashg'ulotlar interfaol va simulyatsion usullar asosida tashkil etiladi. Harbiy xizmatchilar interfaol metodlar orqali turli xizmat vaziyatlarini tahlil qiladi, axborotlarni tanqidiy baholaydi, o'z fikrini dalillar bilan himoya qiladi va jamoada qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa ularda zamonaviy mafkuraviy tahdidlarga nisbatan barqaror immunitet va yuksak jangovar ruhni shakllantirishga xizmat qiladi.

– Dastlabki mashg'ulotlar davomida harbiylarning dunyoqarashi va ruhiyatida ijobiy o'zgarishlar kuzatildimi?

– Ha, bunday o'zgarishlarni tajriba-sinov ishlari davomida bevosita kuzatdim. Xususan, "G'oyaviy ring" bo'limidagi dastlabki mashg'ulotlarda aksariyat harbiy xizmatchilar berilgan vaziyatlarga javob berishda tortinar, uzoq o'ylar va o'z fikrini erkin bayon etishga ikkilanardi. Mashg'ulotlar izchil va takroriy tarzda tashkil etilgach esa sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Harbiy xizmatchilar bahs-munozaralarda faolroq ishtirok eta boshladi, jamoada ishlash ko'nikmalari rivojlandi, o'z fikrlarini qat'iy himoya qila oldi hamda xulosalarini fakt va dalillar bilan asoslashga odatlandi.

Shu bilan birga, mashg'ulotlar davomida zamonaviy jangovar harakatlarga oid videolavhalar namoyish etilib, har bir vaziyat harbiy xizmatchilar bilan atroflicha tahlil qilindi. Muhokamalar jarayonida ular voqealarni tahlil qilish, tezkor qaror qabul qilish va qarorlarini dalillar bilan asoslash ko'nikmalarini rivojlantirdi. Mashg'ulot yakunida esa ular jang maydonida to'g'ri va tezkor qaror qabul qilish jangovar vazifani muvaffaqiyatli bajarish, dushmani yer bilan yakson etish hamda shaxsiy tarkib xavfsizligini ta'minlashning eng muhim omillaridan biri ekanini chuqur anglab yetdi. Aynan shu natija "mafkuraviy poligon"ning amaliy samaradorligini yaqqol namoyon etdi.

– Bugungi axborot asrida harbiy xizmatchilarni mafkuraviy tahdidlarga qarshi

tayyorlash qay darajada muhim? "Mafkuraviy poligon" bu vazifani qanday bajarmoqda?

– Zamonaviy tahdidlar endi faqat jang maydonida emas, balki axborot makonida ham namoyon bo'lmoqda. Shuning uchun harbiy xizmatchilarni mafkuraviy tahdidlarga qarshi tayyorlash harbiy ta'limning ustuvor vazifalaridan biridir. "Mafkuraviy poligon"da harbiylar, kursant va askarlar turli vaziyatlarni tahlil qilish, axborotlarni tanqidiy baholash, mustaqil qaror qabul qilish va o'z fikrini dalillar bilan himoya qilish ko'nikmalarini egallaydi. Bu ularda mafkuraviy immunitet, Vatanga sadoqat, mas'uliyat hissi va jangovar ruhni yanada mustahkamlashga yordam beradi.

– Harbiy xizmat bilan bir qatorda ilmiy izlanishlar olib borish ham oson emas. Bu jarayonda vaqtni qanday taqsimlaysiz? Oilangizning qo'llab-quvvatlovi siz uchun qanchalik muhim?

– Harbiy xizmat avvalo mas'uliyat va intizomni talab qiladi. Shu bois kun tartibimni oldindan rejalashtirishga odatlanganman. Xizmat vazifalarini sidqidildan bajarish bilan birga bo'sh vaqtimni ilmiy izlanishlarga unumli sarflashga harakat qilaman.

Bu yo'lida oilamning, ayniqsa ota-onam va turmush o'rtog'imning qo'llab-quvvatlovi men uchun beqiyos ahamiyatga ega. Ularning duosi, sabri, ishonchi va doimiy dalda berib turishi menga kuch bag'ishlaydi. Erishayotgan har bir natijamda ota-onamning bergan tarbiyasi, oilamning mehri va qo'llab-quvvatlovi mujassam ekanini dildan his qilaman.

– Kelajakda yana qanday maqsadlarni ko'zlayapsiz?

– Bundan buyon ham harbiy ilm-fan rivojiga xizmat qiladigan innovatsion g'oyalar va amaliy ishlanmalar yaratish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish yo'lida sidqidildan mehnat qilishni o'z oldimga maqsad qilib qo'nganman.

– Mazmunli suhbat uchun tashakkur. Salomat bo'ling.

Shohista ABDURAHMONOVA suhbatlashdi.

Texnologiya

Bugun dunyoda Qurolli Kuchlar nisbati endi faqat tanklar, samolyotlar yoki askarlar soni bilan emas, balki texnologiyalar darajasi bilan belgilanmoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt (SI) sohasidagi taraqqiyot global xavfsizlik tizimiga mutlaqo yangi qoidalarni olib kirdi. Kechagina fantastikadek tuyulgan "aqli qurollar", mustaqil qaror qabul qiluvchi tizimlar bugun amaliyotga jadal kirib kelmoqda.

Globallashuv sharoitida axborot eng katta qurolga aylandi. Uni kim tezroq qayta ishlaydi, kim aniqroq xulosa chiqaradi: o'sha ustunlikka ega bo'ladi. Ana shu nuqtada sun'iy intellekt harbiy sohaning markaziy elementiga aylanib ulgurdi. Yetakchi davlatlar milliardlab mablag'larni aynan SI asosidagi mudofaa texnologiyalariga yo'naltirayotgani ham bejiz emas.

Ma'lumki, zamonaviy harbiy harakatlarda vaqt va aniqlik hal qiluvchi omil hisoblanadi. Sun'iy intellekt ham katta hajmdagi ma'lumotlarni bir necha soniyada tahlil qilib, real vaqt rejimida eng maqbul qarorlarni taklif eta oladi. Razvedka ma'lumotlari, sun'iy yo'ldosh tasvirlari, dronlardan kelgan axborotlar SI yordamida qayta ishlanib, qo'mondonlikka yuqori aniqlikdagi tahlil

taqdim etiladi. Bu esa inson omili sababli yuzaga keladigan xatolarni keskin kamaytiradi. Yana bir haqiqat, bugungi kunda

uchuvchisiz uchish apparatlari – dronlar harbiy amaliyotning ajralmas qismiga aylandi. Ular nafaqat kuzatuv va razvedka ishlarini amalga oshiradi, balki xavfli hududlarda inson o'rmini bosib, jangchilar hayotini asrashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, avtonom yerusti va dengiz platformalari ham sun'iy intellekt asosida mustaqil harakat qilib, murakkab vazifalarni bajarish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu esa kelajak janglari inson ishtirokisiz ham olib borilishi mumkinligini ko'rsatadi va bu jiddiy strategik savollarni keltirib chiqaradi.

Kibermaydon esa yangi frontga aylandi. Bugun urush faqat jismoniy maydonda emas, balki axborot makonida ham kechmoqda. Kiberhujumlar orqali davlat infratuzilmalari, bank tizimlari, aloqa tarmoqlari ishdan chiqarilishi mumkin. Sun'iy intellekt bunday tahdidlarni erta aniqlash, ularni neytrallash va

tizimlarni himoya qilishda samarali vosita sifatida xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, feyk ma'lumotlar va axborot xurujlariga qarshi kurashishda ham SI imkoniyatlari keng qo'llanilmoqda.

Harbiy tayyorgarlik sohasida ham tub o'zgarishlar kuzatilmoqda. Sun'iy intellekt asosidagi virtual trenajyorlar va simulyatsiya platformalari orqali askar va ofitserlar real jangga yaqin sharoitda tayyorlanmoqda. Turli ssenariylar modellashirilib, tezkor qaror qabul qilish, stressga bardosh berish va taktik fikrlash ko'nikmalari rivojlantirilmoqda. Bu esa real janglarda yo'qotishlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Biroq masalaning ikkinchi tomoni ham bor va sen uni chetlab o'ta olmayсан. Sun'iy intellekt asosidagi avtonom qurollar mustaqil qaror qabul qila boshlasa, javobgarlik kimning zimmasida bo'ladi? Inson nazorati qay darajada saqlanadi? Bu savollar bugun

xalqaro miqyosda keskin bahslarga sabab bo'lmoqda. Shu bois SI ni harbiy sohada joriy etishda xalqaro huquq normalari va insonparvarlik tamoyillariga qat'iy amal qilish talab etiladi.

Xulosa aniq: sun'iy intellekt zamonaviy harbiy sohaning shunchaki bir qismi emas, balki uning yo'nalishini belgilayotgan asosiy kuchga aylanmoqda. U mudofaa tizimining samaradorligini oshira oladi, inson hayotini muhofaza qiladi va strategik ustunlikni ta'minlaydi. Biroq bu texnologiyadan oqilona, mas'uliyatli va qonuniy foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har qanday ilg'or texnologiya, avvalo tinchlik va barqarorlikka xizmat qilishi lozim.

Kapitan Xushvaqt PARDAYEV, Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Sharqiy harbiy okrug fakulteti katta o'qituvchisi



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

Sun'iy intellekt – kelajak armiyasining ishonchli yordamchisi. Bugungi kunda dunyo shiddat bilan rivojlanmoqda. Axborot texnologiyalari, raqamli tizimlar va sun'iy intellekt (SI) hayotimizning barcha jabhalariga kirib bormoqda. Ayniqsa, harbiy sohada sun'iy intellektdan foydalanish davlat xavfsizligini ta'minlash, harbiy xizmatchilar faoliyatini yengillashtirish hamda jangovar tayyorgarlikni oshirishda muhim omilga aylanmoqda.

Sun'iy intellekt – inson tafakkuriga xos ayrim vazifalarni bajarishga qodir bo'lgan dasturiy tizim. U katta hajmdagi ma'lumotlarni qisqa vaqt ichida tahlil qilish, xavf-xatarlarni oldindan aniqlash va tezkor qaror qabul qilishda katta yordam beradi. Shu sababli dunyoning rivojlangan davlatlari armiyalarida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Harbiy sohada SI asosidagi kuzatuv tizimlari chegaralarni nazorat qilish, uchuvchisiz apparatlarni boshqarish va razvedka ma'lumotlarini qayta ishlashda qo'llanilmoqda. Bunday tizimlar inson ko'zi ilg'amay qolishi mumkin bo'lgan xavflarni aniqlash imkonini beradi. Natijada harbiy xizmatchilar o'z vazifalarini yanada samarali va xavfsiz bajarishlari mumkin.

Shuningdek, sun'iy intellekt harbiy ta'lim jarayonida ham muhim o'rin tutmoqda. Virtual trenajyorlar va simulyatorlar yordamida harbiy xizmatchilar murakkab vaziyatlarda harakat qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu esa amaliy mashg'ulotlarning samaradorligini oshirib, vaqt va mablag'larni tejash imkonini beradi.

Yurtimizda ham raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va yoshlarning IT sohasiga qiziqishini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Kelajakda sun'iy intellekt bo'yicha bilimga ega bo'lgan yosh mutaxassislar mamlakatimiz mudofaa salohiyatini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bugungi harbiy xizmatchi nafaqat jismonan chiniqqan, balki zamonaviy texnologiyalarni puxta egallagan mutaxassis bo'lishi zarur. Chunki zamonaviy urush va xavfsizlik masalalarida bilim, texnologiya va tezkor tahlil muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt harbiy sohaning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Uni to'g'ri va samarali qo'llash mamlakat mudofaa qudratini mustahkamlash, harbiy xizmatchilar faoliyatini takomillashtirish hamda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Vatan himoyasi yo'lida zamonaviy bilim va

texnologiyalarni egallash esa bugungi yoshlar oldidagi eng muhim vazifalardan biridir.

II darajali serjant Sarvar QAHRAMONOV, Merganlarni tayyorlash markazi katta yo'riqchisi



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

Zamonaviy armiyaning YANGI IMKONIYATLARI

“YOSHLIK”da o'tgan damlar...

1982-yilda tashkil etilgan “Yoshlik” jurnalining ilk sonini chiqarish uchun qizg'in tayyorgarlik ko'rilayotgan paytlar edi. Kunlarning birda yozuvchi Xayriddin Sultonov menga qo'lyozma topshirdi. Bu jurnalning birinchi soniga chop etishga rejalashtirilgan adibning “Saodat sohili” qissasi ekan.

Darhol ishga kirishdim va o'zim bilmagan holda asar qahramonlari hayotiga kirib boraverdim. Azbaroyi keyin nima bo'lishiga qiziqishim ortganidan, aytilgan vaqtdan bir necha kun oldin ishni tamomladim va mashinkaga boshimni qo'yganicha, ho'ng-ho'ng yig'lay boshladim. Xonadoshlarim xavotirga tushib qoldi, nima bo'lganini so'rashdi, men esa gapirolmay nuqul qo'lyozmani ko'rsatib yig'layman. Kimdir yugurib borib, Xayriddin akaga voqeani yetkazibdi. Bir mahal xonaga adibning o'zlarini kirib keldilar-da, menga hayrat bilan qarab:

– Singlim, sizga nima bo'ldi, kim xafa qildi? – dedilar.

Men esa ko'zlarimni arta-artar:

– Xayriddin aka, shunaqayam shafqatsiz bo'lasizmi? Axir shartmidi, Boburni o'ldirish? – debman, ko'z yoshlarim shashqator bo'lib.

Xayriddin aka hayron bo'ldilar:

– Singlim, men tarixni o'zgartir olmayman-ku? Axir Bobur bobomiz rostdan ham juda yosh o'tganlarda... – dedilar shoshib.

– Bilaman, lekin asarning oxirida Hofiz Ko'ykiy Boburning vafotini bilmay, Andijonga ketsa bo'lardi-ku? Nega Boburning vafoti haqidagi nomadan u kishini xabardor qilasiz?

Xayriddin aka go'dakday arazlab yig'layotgan talaba qizga akalarcha, ha, akalarcha samimiy qarab turdilar-da, so'ngra:

– Bilmabman-da, singlim, sizlarni buncha xafa qilib qo'yishimni, bilmabman-da, – dedilar va qo'lyozmani olib, sekin xonadan chiqib ketdilar.

Men asar ta'sirida kechgacha xomush yurdim. Ertasi ertalab ishga kelsam, mashinkamning ustida uch dona chinnigul va shokolad turibdi. Savol nazari bilan qizlarga qaradim.

– Kecha seni xafa qilgan yozuvchi olib keldi, – deyishdi.

Ozgina xijolat bo'ldim, so'ngra gullarning birini texnik muharririmiz Valentina opaga, ikkinchisini hamkasbim Ra'noga bergach, shokoladni choy bilan maza qilib yedik.

Ehtimol, kim uchundir oddiy ko'ringan bu voqea men uchun olis beg'ubor yoshligim va g'o'rligimni eslatgani uchun juda yoqimli va aziz...



“Yoshlik” jurnalining 1982-yilgi uchta sonida mashhur guri yozuvchisi Nodar Dumbadzening “Abadiyat qonuni” romani Nizom Komilov tarjimasida bosiladigan bo'ldi. Nasr bo'limining boshlig'i Erkin A'zamov qo'lyozmani menga topshirar ekan:

– Gulixon, asar judayam kuchli. Bizdan keyin o'qiyotgan odam siz bo'lasiz, – dedi viqorli tovushda.

Men zamirida andak maqto'v singdirilgan gapni eshitib, albatta, xursand bo'ldim. Ilk sahifani o'qib oq angladimki, rostdan ham asar bebaho, unda guriylarga xos erkalama turg'un aytimlar, xalq qo'shiqlari qahramonlar tilidan o'z o'mida kuylangan, asar qahramonlari ruhiyati, kayfiyatiga ko'ra Shota Rustavelining satrlaridan o'mida foydalanilgan edi. Adib qanchalar iste'dodli bo'lsa, tarjimon mahorati ham nazarimda undan kam bo'lmagan.

Ko'chirish jarayonida odatimga ko'ra hech kim bilan ortiqcha gaplashmas, agar biror so'z yoki gapni tushunmasam, nasr bo'limidan telefonda so'rar, aniqlik kiritishning iloji bo'lmasa, qo'lyozmani ko'targancha xonalariga chiqardim. U paytlardagi mashinka hozirgi kompyuterlardan farqli o'laroq, xatoga yo'l qo'yilsa, o'sha sahifa xunuk bo'lib qolar, tabiiyki, men buni yoqtirmasdim.

“Abadiyat qonuni”ni mashinkada terish bahona guriylar hayotining men bilmagan, katta-kichik so'qmoqlariga kirib bordim. Ayniqsa, asar qahramonlaridan biri Margoning ushalmas orzulari aks etgan sho'xchan va hasratli aytimlari kishiga juda yoqardi.

Odatdagidek, har yangi son qo'limizga yetib kelganda, Erkin Vohidovning xonasida yig'ilish bo'lardi. Hammaga rahmat aytilar, bu bizning kayfiyatimizni ko'tarar edi. Ammo o'ninchi son bosilganda, unday bo'lmadi. Aksincha, bosh muharrir o'rinbosari, yozuvchi Murodjon Mansurov meni xonasiga chaqirib, tanbeh berdi:

– Gulixon, Nodar Dumbadze asarining ichida Nizomiy Ganjaviyning g'azali nima qilib yuribdi? Siz e'tiborsizlik bilan ko'chirgansiz. Buning uchun jazo olasiz, – dedilar.

Men hayron qoldim. To'g'ri, jurnalning o'sha yilgi to'rtinchi sonida Nizomiy Ganjaviyning “Haft paykar” dostonidagi “Farzandim Muhammadga nasihat”i Shoislom Shomuhamedov tarjimasida berilgan edi. Ammo oradan shuncha vaqt o'tib, nega Nodar Dumbadzening asari ichida shoirning g'azali paydo bo'lib qolishi ajablanarli edi. Endi og'iz juftlay desam:

– Siz xayolparastlik qilib, romanni ko'chirayotganda g'azalni mashinkada

terib yuborgansiz. Mana, oqibati, yuqoridan aybdorni jazolashni talab qilishyapti, – dedilar ko'rsatkich barmoqlarini shiftga nuqib. – Ertaga soat o'n birda xonamda majlis bo'ladi.

Yosh talaba edim. Ertasiga majlisda Murodjon aka gapirdi. Lekin Sa'dulla Siyoyev, Nasriddin Muhammadiyev, Erkin A'zamov, Xayriddin Sultonov va boshqalar meni ayblab, biror so'z aytishmadi. Majlis yakunida Murodjon aka menga qattiq hayfsan berilishini e'lon qildilar.

Inson har qanday qiyinchilikka chidaydi, sabrini ishga soladi, o'tib ketishidan umid qiladi. Faqat adolatsizlik sabr qilishga yo'l bermaydi. Garchi gapirib, noroziligimni bildirmagan bo'lsam ham, ko'zlarimdan yosh oqa boshladi. Shu payt Erkin A'zamov:

– Murodjon aka, singlimiz hali yosh, balki yuqoriga og'zaki tanbeh bildirildi, deb qo'ysak bo'lmaydimi? – dedilar odatlariga ko'ra dadillik bilan.

Bu taklif hammaga birdek ma'qul keldi. Murodjon aka endi og'iz juftlayotganlarida eshik ochilib, bosh muharririmiz Erkin Vohidov kirib keldi va:

– Xo'sh, aybdor aniq bo'ldimi? – deb so'radilar.

Murodjon aka o'rnidan turib, masala qanday yechim topganini aytdi. Erkin aka hayratlarini yashirmay o'rinbosarga tikilib qaradi.

– Shunday deng-a, Murodjon aka, – dedilar Erkin aka ochiq istehzo bilan. – Ishxonadagi eng kichik lavozim egasi, deb Gulixon topildi-mi? Mening haydovchim, yana farrosh ayol borligini esingizdan chiqardingizmi? Xo'p, mashinistka xato teribdi, deylik, muharrir, korrektorlarning ko'zi qayoqda edi? Ular gruzin yozuvchisining asariga mumtoz adabiyotdan g'azal qanaqasiga kirib qoldi, deb nega o'ylamadi? Singlimizga hech qanday chora ko'rilmaydi. Yuqoriga o'zim tushuntiraman.

Majlis shu nuqtada tamom bo'ldi. Sodir bo'lishi mumkin bo'lgan adolatsizlikdan himoya qilinganim bois azbaroyi hayajonlanganimdan boshimni ko'tarib, hech kimga qarolmas edim.

Keyinroq shivir-shivir gap tarqaldi. Jurnalning texnik muharrirligini Valentina Urusova bajarar edilar. O'sha paytlardagi bosmaxonalarning texnik ahvoliga ko'ra, jurnalda nashr etiladigan barcha materiallar qaychida qirilib, vatman qog'oziga yelimlanar, bu shartli ravishda “dasturxon” deb atalardi. Opa o'zbek tilini yaxshi bilmagani uchun, ana shu yelimlash payti xatoga yo'l qo'ygan ekanlar, deyishdi. Aytish kerakki, Valentina Urusovaga ham og'zaki ogohlantirish berildi. Balki, ayolning qizini yolg'iz tarbiyalayotgani inobatga olingandir.

Kim ishonib, kim ishonmay, oradan qirq to'rt yil o'tib, xotiralarimni qog'ozga tushira boshlaganimda, menda mana shu sirning tagiga yetish istagi paydo bo'ldi.

(Davomi bor).

Guljahon MARDONOVA,
adiba, filologiya fanlari doktori

Ko'ngil bekatlari

MOVIIY OSMON

bag'ridagi hovli

Er-xotin ishdan qaytyapti. Hamma erkaklar kabi erkak, barcha ayollar kabi ayol. Bred Pitt yoki Anjelina Joli emas, tabiiy. Kayfiyatlari... nima desam ekan? Tashqaridan juda sokin ko'rinadi.

– Nima qilamiz, a, Zebi? – deb xotiniga yuzlandi erkak. – Kredit bo'g'zimizdan olyapti-ku?! Qanday qilamiz? Aksiga olib, mashina ham buzilib qoldi. Uyam pul...

Bu narsa Zebini ham tinch qo'ymaydi. Ismi Zebi emas, Zebo. Negadir Zebi desa ko'ngilga yaqin, samimiy chiqadi. O'g'il uylash, yangi uy qurilishi bir vaqtda boshlangani uchun tavakkal qildilar. Katta qarz olindi, ikki xonali kvartirani sotishsa, hammasi joy-joyiga tushadi. Biroq uy sotilmay qoldi. Hovlida tovusdek tovlanib yurgan kelin, baxtiyor o'g'il, yayrab yurgan nabiralar, oppoq-oydin uylari, keng-mo'l hovli ikkisinin ham ko'zini quvontiradi. Ammo qarz degan yuk ham yengil emas.

– Mayli, birorta tilla taqinchog'imni sotarman, – dedi Zebi eriga qarab, yasama jiddiylik bilan. Unda hazil bilan tarang vaziyatni yumshata olishdek noyob fazilat bor. – Sotgim kelmayapti. Sizni o'ylaganim uchun emas, kreditni o'ylab, sotaman, deyapman.

– Senga birov tillangni sot deyaptimi? – dedi eri ham kulgisini bildirmaslikka urinib.

Shu tob telefon qo'ng'irog'i shodon jarangladi. “Ketyapsanmi? Ha, ha, biz ham uyga yaqinlashib qoldik. Ikki-uch daqiqada boramiz”.

– Tezroq yur, singlim Surxondaryoga qaytamiz, deyapti. Ular yo'lga chiqishga shay turgan ekan.

– Yana bir-ikki kun qolsang bo'lardi, – dedi singlisini ketkazgisi kelmay.

– Aka, ancha turdik, yetar, endi o'zlaringiz boringizlar. Ertaroq yo'lga chiqmoqchi edik, siz bilan xayrlashay, deb chiqqim kelmadi.

Aka taksi chaqirtirdi. Xo'shlayotganlari palla Zebi cho'ntaklarini titkilayotgan eriga qarab, g'alati bo'lib ketdi. Puli...

Mashinaga chiqayotgan singlisi yo'q deyishiga qaramasdan, qo'lga bir siqim pulni tutqazdi: “Ol, ol, yo'lkira qilasan”.

Oxirgi pulini singlisiga tutayotgan erkak... Yo'q, singil o'ziga to'q yashaydi, yonida kap-katta o'g'li, eri. Ammo... u AKA edi!

– Olim aka, – dedi Zebi eriga mutaassir boqib, – Siz yaxshi odamsiz...

Shuni aytib, boshini orqaga tashlab, ko'kka qaradi. Jilmaydi. Osmon shu qadar tiniq, moviy ediki, ayolning bo'g'zini kuydirib, ko'zlariga yetay degan yosh qalqan joyida ortga chekindi. Eng latif tuyg'ularini tiliga hech qachon



yigit daf'atan ko'zimga juda ko'rkli ko'rindi. Opasi bilan bayram bahona gurunglashib qaytmoqchi. Jiyanlariga hadyalar olibdi. Uni ko'rib, opasi sevinib ketsa kerak. Jiyanlari yugurib chiqadi. Mehr ham noyoblashib boryapti. U mo'jizaga o'xshaydi. Ko'ngilni makon tutadi, ko'ngillarni bir-biriga o'lmas rishtalar bilan bog'laydi.

Opasini yo'qlab kelishga ketayotgan ukalarimni yodimga soldi. Mening ham ukalarim bor. Ikkisi ham tiriklik tashvishida yot elda yuribdi. Kichigi nogiron... hozir ikkisi ham ishda. U yoqlarda hayit bayramlari bo'lmaydi. Mayli, sog' bo'lishsa bo'ldi.

Uch kunlik kelinchak, dugonam va oilasining sevinchi, mehmonlar, chuvullashib yurgan kichkintoylarga chalg'idim. Dunyo ne'matlaridan bahramand bo'lib, chaq-chaqlashib o'tirdik. Ko'nglimiz oftobday yorishib, uy-uyalarimizga tarqaldik.

Kech soat o'nlarda qo'ng'iroq bo'ldi. Kichik ukam! Shoshganimdan yashil tugmachani tepaga qarab bosyapman, o'lgur ochilmaydi-da. O'chib qoldi. Uff, yonboshga qarab bosilar edi-ku. Shu payt yana qo'ng'iroq bo'ldi.

– Oyijon, nega telefonimni ko'tarmaysiz? Bayramingiz qutlug' bo'lsin!

– Rahmat, rahmat, senga ham qutlug' bo'lsin! Yaxshimisan, tanjoning sog'mi?

– Yaxshi, rahmat, o'zing yaxshimisan? (menga “oyijon” deganida sizlaydi, opa desa, sansiraydi. Shunday, maqomim goh “oyi”, goh “opa” bo'lib o'zgarib turadi)... Shu oyning oxirida uyda bo'laman. Sen ham ta'tilningni shu oyga to'g'rila. Aytgancha, qanday ovqat yeging kelyapti? Baliq yeysanmi?..

Siylagisi kelyapti. Ukam-a, men allaqachon yemaklardan sevinmaydigan yoshga yetganman. Tashnaligim ortgan. Mehrga, oqibatga, diydorga... Bularni unga uzoq tushuntirishim kerak.

– Sen kelaver, oilang bag'riga sog'-omon kel, menga shunisi yetadi... – shularni ayta oldim.

Gapirolmay qoldim. Negadir o'pkam to'ldi. Ko'zyoshim toshib chiqsa, o'zimni to'xtatolmay qolishdan qo'rqib, xayr-xo'shsiz telefonni o'chirdim. Barmoqlarim titrab, tez-tez shuni yozdim: “Kechir. Ertaga o'zim telefon qilaman. Yaxshi dam ol”.

Inobat NODIRSHOH

chiqarishni bilmaydigan ayol moviy cheksizlikka singib ketayotganini his qildi. Ta'rifsiz bir huzur. Bu, bir ayol erkakka aytishi lozim bo'lgan izhorning eng sodda, eng bebahosi edi.

Shu payt yana telefon qo'ng'irog'i chalinib, kvartiraga xaridor chiqqani, bu laziz lahzalar oldida heeche edi.

UKA

Biz, o'zbeklarga bir dasturxon atrofida do'st-yoron, qarindosh-urug'lar yig'ilishi uchun sabablar har doim topiladi. Qurbon hayiti kunlari hamkasb dugonamiz, “Kelinimning qo'lidan choy ichib ketinglar”, deb yangi uylariga taklif qildi. Darrovgina rozi bo'lib, yo'lga chiqa qoldik.

Boradigan joyimiz biroz uzoq bo'lgani uchun, dugonamiz Muharramning o'g'li mashinasida tashlab qo'yadigan bo'ldi.

– Qizimning uyi ham o'sha tomonlarda, Ahrorbek opasi bilan bolalariga hayitliklar olgan ekan, shu bahona sizlarni ham tashlab qo'yaman, dedi...

Qulog'imga qolgan gaplar deyarli kirmadi. Xayolim opasi va jiyanlarini yo'qlab borayotgan yigitda. Biroz adabga to'g'ri kelmasa ham, mashina boshqarib ketayotgan yigitga zehn solib qarayman. U opa ekanimni eslatdi. Yoshi yigirma beshlar bo'lsa kerak. Balki, yoshroq bo'lishi ham mumkin. Yuragida bir olam shafqatni ortmoqlab ketayotgan

Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

30-iyul – Xalqlar do'stligi kuni

Shimoli-g'arbiy harbiy okrugda Xalqlar do'stligi kuni munosabati bilan “Do'stlik festivali” tashkil etildi. Mazkur festival mamlakatimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalik, millatlararo totuvlik hamda diniy bag'rikenglik muhitini yanada mustahkamlash, yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat, insoniylik va hamjihatlik tuyg'ularini yuksaltirishga xizmat qilgan muhim ma'naviy-ma'rifiy tadbirga aylandi.



YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING mustahkam poydevori

Festival doirasida “Biz yagona Vatan farzandlarimiz”, “O'zbekiston – yagona Vatan”, “Qo'shnichilik va bag'rikenglik saboqlari” mavzularida davra suhbatlari tashkil etildi. Unda harbiy xizmatchilar, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, nuroniyalar, yoshlar hamda turli milliy madaniy markazlar faollari ishtirok etib, Yangi O'zbekistonda millatlararo totuvlik va o'zaro hurmatni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar haqida fikr almashdi.

Tadbirda so'z olganlar O'zbekiston hududida turli millat va elat vakillari yagona maqsad – Vatan ravnaqi, xalq farovonligi va yurt tinchligi yo'lida ahil va inoqlikda yashab, bunyodkorlik ishlariga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Aynan ana shunday birdamlik va hamjihatlik mamlakatimiz taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etildi.

Festivalning badiiy qismi esa chin ma'noda do'stlik va hamjihatlik bayramiga aylandi. Unda turli millat vakillari tomonidan xalq kuy-qo'shiqlari,

milliy raqs hamda urf-odatlarini aks ettiruvchi sahna ko'rinishlari namoyish etildi. Rang-barang madaniy chiqishlar milliy qadriyatlarimizning betakrorligi, xalqimizning bag'rikengligi va o'zaro hurmat tamoyillarini yorqin ifoda etdi.

Tadbir davomida milliy madaniyat, hunarmandlik va amaliy san'at namunalari iborat ko'rgazmalar tashkil qilinib, ishtirokchilarga yurtimizning boy madaniy merosi namoyish etildi. Shuningdek, yoshlar o'rtasida sport musobaqalari, harbiy-vatanparvarlik ruhida ko'rgazmali chiqishlar hamda turli tanlovlar o'tkazildi. Ushbu bellashuvlar yoshlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish, ularni sog'lom turmush tarziga jalb etish, Vatanga sadoqat va fidoyilik ruhida tarbiyalashga xizmat qildi.


Festival yakunida ta'kidlanganidek, millatlararo totuvlik, o'zaro hurmat va bag'rikenglik O'zbekistonning

bebaho boyligi, xalqimizning kuch-qudrati hamda barqaror taraqqiyotining mustahkam poydevoridir. Ana shunday ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar jamiyatimizda do'stlik rishtalarini yanada mustahkamlash, yosh avlod qalbida yuksak insoniy fazilatlarini kamol toptirish va Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg'usini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Zero yagona Vatanimizning tinchligi va ravnaqi, xalqimizning birdamligi va hamjihatligi har bir fuqaroning eng ulug' boyligi, eng yuksak qadriyati hisoblanadi. Do'stlik, bag'rikenglik va o'zaro hurmat hukm surgan jamiyatda taraqqiyot barqaror, kelajak esa yanada porloq bo'ladi.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati

Yangi nashr



O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti dotsenti podpolkovnik Sherzod Alimovning “Ikkinchi jahon urushida harbiylar va xalq jasorati, matonati hamda hozirgi zamon” monografiyasida Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston xalqining front va front ortidagi fidokorona mehnati, harbiy xizmatchilarning jangovar xizmati g'alabaga erishishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etgani ilmiy qarashlar asosida yoritilgan.

Monografiyada harbiy harakatlar tarixi bilan bir qatorda xalqning mehnat frontidagi fidoyiligi, iqtisodiy salohiyati,

ma'naviy qo'llab-quvvatlashi va milliy birlik omillari g'alabaning muhim tarkibiy qismi sifatida tahlil qilingan. Urushning dastlabki bosqichida respublikada kechgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlar, xususan urush boshlanishi bilan xalq xo'jaligining qisqa muddat ichida harbiy holatga ko'chirilishi, sanoat tarmoqlarining qayta tashkil qilinishi, korxonalarning evakuatsiya qilinishi va mudofaa sanoati ehtiyojlariga moslashtirilishi yoritilgan. O'zbek xalqi va harbiylarning fashizmga qarshi kurash jarayonidagi jipsligi, millatlararo hamjihatlik, vatanparvarlik va umumiy maqsad yo'lida birlashuvi bayon etilgan.

Muallif urush yillarida o'zbekistonlik harbiy xizmatchilarning jang maydonlaridagi ishtirokini nafaqat tarixiy voqelik sifatida, balki milliy harbiy

an'analar va jasorat maktabi nuqtayi nazaridan tahlil qiladi. Ayniqsa, harbiy matbuot faoliyatiga bag'ishlangan bo'lim diqqatga sazovor. Front gazetalari, milliy tildagi harbiy nashrlar jangchilarning ma'naviy tayyorgarligi, ruhiy barqarorligi va g'alabaga bo'lgan ishonchini mustahkamlashda muhim vosita bo'lgani ochib berilgan. Muallif harbiy matbuotni axborot vositasigina emas, balki mafkuraviy va tarbiyaviy institut sifatida baholaydi.

Nashrning eng muhim jihatlardan biri shundaki, g'alabaga munosib hissa qo'shgan harbiylar va xalq jasorati Yangi O'zbekiston tarixi hamda milliy o'zlikni anglashning muhim manbai sifatida talqin qilingan. Unda frontda jang qilgan harbiylar bilan bir qatorda front ortida mehnat qilgan millionlab insonlarning

Ilmiy-ma'rifiy manba

Ikkinchi jahon urushi insoniyat tarixidagi eng og'ir va halokatli voqealardan biri sifatida millionlab insonlar taqdiriga ta'sir ko'rsatdi. Ushbu urush davrida O'zbekiston ham sobiq Ittifoq tarkibida front uchun inson resurslari, iqtisodiy salohiyat va ma'naviy kuch safarbar qilingan hududlardan biri bo'ldi.

xizmatlari ham munosib baholanadi. Ayollar, qariyalar, yoshlar, ishchilar va dehqonlarning mehnat jasorati harbiy g'alabaning ajralmas qismi sifatida ko'rsatiladi.

Podpolkovnik Sh. Alimov tarixiy xotirani shakllantirishda inson omilini birinchi o'ringa qo'yadi. Kitobda Ikkinchi jahon urushi saboqlari hozirgi harbiy ta'lim va vatanparvarlik tarbiyasi bilan bog'langan. Bunda tarixiy voqealarni shunchaki eslash emas, ulardan xulosa chiqarish, milliy g'ururni mustahkamlash, harbiy xizmatga hurmat ruhini shakllantirish asosiy vazifa sifatida belgilanadi.

Kitob harbiy olimlar, doktorantlar, magistrantlar va talabalar hamda keng kitobxonlar ommasi uchun muhim manba hisoblanadi. Shu bilan birga, mazkur nashr tarixiy xotirani saqlash, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va milliy g'ururni mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim ilmiy-ma'rifiy manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Kapitan Dilshod RO'ZIQULOV, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

“KOBAN” FALSAFASI — *Yaponiyaning xavfsizlik siri*



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

Yaponiyaning huquq-tartibot tizimi markazlashgan boshqaruv, kuchli muvofiqlashtirish hamda jamoatchilik bilan yaqin hamkorlikka asoslangan noyob model sifatida e'tirof etiladi. Mamlakatda politsiya faoliyatining asosiy maqsadi nafaqat jinoyatchilikka qarshi kurashish, balki uning oldini olish, fuqarolar bilan ishonchli munosabat o'rnatish va xavfsiz ijtimoiy muhitni shakllantirishdan iborat.

Yaponiyada milliy miqyosdagi barcha huquqni muhofaza qilish faoliyatini National Police Agency muvofiqlashtiradi. Ushbu agentlik mamlakatning 47 prefekturasidagi politsiya tizimi faoliyatini yagona siyosat, standart va strategiyalar asosida boshqaradi. Shu bilan birga, hududiy politsiya boshqarmalari kundalik tartibni saqlash va mahalliy muammolarni hal etish bilan shug'ullanadi.

Yapon politsiya tizimining eng muhim va o'ziga xos jihatlardan biri “koban” tizimidir. “Koban” mahallalarda joylashgan kichik politsiya punktlari bo'lib, ular aholiga yaqinlik va ochiqlik tamoyili asosida faoliyat yuritadi. Bu punktlarda xizmat qiluvchi xodimlar mahalla aholisi bilan muntazam muloqot qiladi, mayda nizolarni hal etadi, xavfsizlik bo'yicha tavsiyalar beradi va jamoatchilik bilan ishonchli aloqalarni mustahkamlaydi.

Aynan shu yondashuv Yaponiyada jinoyatchilik darajasining past bo'lishiga xizmat qilayotgan asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Chunki tizim jazolashdan ko'ra, profilaktika va hamkorlikka ko'proq urg'u beradi.

MILLIY POLITSIYA AGENTLIGI: YAGONA BOSHQARUV MARKAZI

National Police Agency Yaponiyada huquq-tartibot faoliyatining markaziy boshqaruv organi hisoblanadi. U National Public Safety Commission nazorati ostida faoliyat yuritadi. Bunday tizim politsiyaning siyosiy bosimlardan xoli bo'lishini ta'minlash bilan birga, markazlashgan boshqaruvni ham saqlab qoladi.

Agentlik Tokiodagi markaziy shtab orqali mamlakat miqyosidagi strategiyalarni ishlab chiqadi hamda tabiiy ofatlar, terrorizm, kiberjinoyatchilik va yirik xalqaro tadbirlar xavfsizligi bilan bog'liq masalalarni muvofiqlashtiradi.

Yaponiya zilzila, tayfun kabi tabiiy ofatlarga moyil mamlakat bo'lgani sababli politsiya tizimi favqulodda vaziyatlarda ham muhim rol o'ynaydi. Agentlik zarur texnika va inson resurslarini safarbar etib, tezkor yordam ko'rsatishni tashkil qiladi.

MAHALLIY POLITSIYA BILAN HAMKORLIK

Prefektura politsiya boshqarmalari kundalik patrullik, yo'l harakati xavfsizligi, mahalliy jinoyatlarning oldini olish kabi vazifalarni bajaradi. Ular hududdagi ehtiyoj va muammolarni yaxshi bilgan holda faoliyat yuritadi.

Markaziy va hududiy tuzilmalar o'rtasidagi hamkorlik, ayniqsa terrorizm, uyushgan jinoyatchilik yoki yirik favqulodda vaziyatlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday hollarda milliy va mahalliy resurslar birlashtirilgan maxsus tezkor guruhlar tashkil etiladi.

MARKAZLASHGAN TIZIMNING MURAKKAB JIHLTLARI

Yaponiyaning markazlashgan politsiya tizimi ko'plab ustunliklarga ega bo'lsa-da, ayrim muammolarni ham yuzaga keltiradi.

Masalan, Tokio yoki Osaka kabi yirik shaharlarda kiberjinoyatlar, transport tirbandligi va uyushgan jinoyatchilik dolzarb masala bo'lsa, qishloq hududlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari o'g'riligi yoki kam aholi yashaydigan hududlarda tartibni saqlash muhimroq hisoblanadi.

Shuningdek, resurslarni hududlar bo'yicha teng taqsimlash ham murakkab vazifa sanaladi. Yirik shaharlarga ko'proq mablag' va xodim ajratilishi sababli ayrim qishloq hududlarida texnika yoki kadrlar yetishmovchiligi kuzatilishi mumkin.

Kiberjinoyatchilik kabi zamonaviy tahdidlar ham tizim oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Shu sababli Yaponiya politsiyasi raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan birga, jamiyat bilan bevosita muloqotga asoslangan an'anaviy yondashuvni ham saqlab qolishga intilmoqda.

“KOBAN” TIZIMI JAMIYATGA ENG YAQIN POLITSIYA MODELI

“Koban” tizimi Yaponiyaning jamoatchilikka asoslangan politsiya falsafasining yorqin namunasidir. Mahallalardagi kichik politsiya punktlari aholining kundalik hayotiga bevosita integratsiyalashgan.

Bu yerda xizmat qiluvchi xodimlar yo'nalish ko'rsatishdan tortib, yo'qolgan buyumlarni qidirish, keksa fuqarolarga yordam berish, maktablarda xavfsizlik bo'yicha suhbatlar o'tkazishgacha bo'lgan turli vazifalarni bajaradi.

Politsiyachilar hududni piyoda yoki velosipedda aylanib chiqadi. Bu esa aholining muammolarini yaqindan bilish, xavfli vaziyatlarni erta aniqlash va ishonchli munosabat o'rnatishga xizmat qiladi.

“Koban” tizimi nafaqat jinoyatchilikni kamaytiradi, balki fuqarolarda xavfsizlik hissini kuchaytiradi. Shu jihatdan u zamonaviy politsiya faoliyatining eng samarali jamoatchilik modellardan biri sifatida ko'riladi.

ZAMONAVIYLASHUV VA YANGI CHAQIRIQLAR

So'nggi yillarda “koban” tizimida kuzatuv kameralaridan, raqamli aloqa vositalaridan va ma'lumotlar tahliliga asoslangan texnologiyalardan keng foydalanila boshlandi.

Biroq jinoyatchilikning tobora raqamli tus olayotgani tizimdan yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Endilikda politsiya nafaqat ko'chalardagi xavfsizlik, balki internet makonidagi tahdidlarga qarshi kurashishda ham faol ishtirok etmoqda.

Shunga qaramay, Yaponiya o'zining asosiy tamoyili jamiyat bilan ishonch va hamkorlikka asoslangan politsiya modelini saqlab qolishga intilmoqda. Bugungi kunda “koban” tizimi Yaponiyada xavfsizlik, tartib-intizom va jamoatchilik ishonchining muhim ramzlaridan biri bo'lib qolmoqda.

**Ingliz tilidan Oybonu
TUXTASINOVA tarjimai.**

YUQUMLI ME'DA-ICHAK

kasalliklari profilaktikasi

Yuqumli me'da-ichak kasalliklarini mikroorganizmlar (*mikroblar*) keltirib chiqaradi. Yuqumli me'da-ichak kasalliklariga ichburug', koliinfeksiya, salmonellez, ichterlama, paratiflar, oziq-ovqat toksikoinfeksiyalari, virusli hepatitlarning A va E turlari, vabo kabi kasalliklar kiradi. Bu kasalliklarning klinik kechishi bir-biridan farq qilsa-da, ularning umumiy o'xshashliklari mavjud.

Kasallik chaqiruvchi mikroblar bemor odam yoki hayvon najasi yoki qusuq massalari orqali tashqi muhitga chiqadi. Mikroblar juda mayda mavjudotlar bo'lib, ularni oddiy ko'z bilan ko'rib bo'lmaydi. Ularni maxsus bo'yoqlar yordamida, mikroskop orqali ko'rish mumkin. Ushbu mikroorganizmlar inson tanasidan tashqarida ham yashash qobiliyatini saqlab qoladi. Sut va go'sht mahsulotlari, sovuq gazak, salat va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari ularning yashashi va ko'payishi uchun qulay sharoit hisoblanadi. Kasallik qo'zg'atuvchi mikroorganizmlar qaynatilganda, ultrabinafsha nurlar va dezinfeksiyalovchi vositalar ta'sirida o'ladi.

Kasallik chaqiruvchi mikroblar odam organizmiga zararlangan oziq-ovqatlar, suv, meva va sabzavotlar orqali tushadi. Mikroblar og'iz orqali odam tanasiga tushishi bilanoq kasallik boshlanmaydi. Ma'lum muddatgacha kasallik belgilari yuzaga chiqmaydi. Lekin bu vaqt mobaynida mikroblar ichaklarda ko'payadi, toksinlarni ishlab chiqara boshlaydi. Bu muddat kasallikning yashirin davri deyiladi va o'rtacha bir


necha soatdan 7-10 kungacha davom etishi mumkin. Ko'p hollarda uning davom etishi ichakka tushgan mikroblarning soniga, ularning biologik xususiyati va odam organizmining kasallikka qarshi kurashuvchanlik qobiliyatiga bog'liq. Odam organizmi qanchalik kurashuvchan bo'lsa, kasallik shuncha yengil kechadi. Aksincha, kurashuvchanlik qobiliyati past bo'lsa, kasallik og'ir shaklda kechishi mumkin.

Aksariyat hollarda katta yoshdagi odamlarda kasallik klinik belgilsiz o'tadi, lekin ular atrofdagilar uchun xavfli hisoblanadi. Bunday kishilarni tibbiyotda "sog'lom" bakteriya (*yoki virus*) tashuvchilar deb yuritiladi. Ba'zida esa kasallik alomatlarini yengilgina namoyon bo'lib, bemorlar uni oyoqda o'tkazishadi. Kichik yoshdagi bolalar, ayniqsa go'daklar organizmining kurashuvchanlik xususiyati hali to'liq shakllanmagani sababli yuqumli me'da-ichak kasalliklariga moyil bo'ladi.

Kasallikning yashirin davri tugagandan so'ng har bir kasallik o'ziga xos belgi va alomatlar bilan namoyon bo'ladi. Bemorni barcha me'da-ichak kasalliklari uchun xos bo'lgan umumiy belgilar darmon qurishi, qorin sohasida og'riq, ko'ngil aynishi, qusish, ich ketishi bezovta qiladi.

Surunkali ich ketishi va qusish tananing suvsizlanishiga olib kelishi mumkin. Tanadan ko'plab suyuqlik, u bilan birga mineral tuzlar ham chiqib ketadi. Suvsizlanish yurak va miya faoliyati hamda qon aylanishning keskin buzilishiga olib keladi. Yana bir noxush oqibatlaridan biri, bu ichak devorida teshilish xavfining mavjudligidir. Jumladan, qorin tifi, paratif va ichburug' kasalligini keltirib chiqaruvchi mikroblar ichak devorlarini yallig'lantiribgina qolmay, balki yara hosil qilib, uning yemirilishigacha olib kelishi mumkin, oqibatda ichak devori teshilish xavfi tug'iladi.

Bemor albatta, stasionar sharoitda davolanishga muhtoj. Lekin bemorni davolash muassasasiga olib



borishgacha bo'lgan davrda unga birlamchi yordam ko'rsatilsa, kasallik og'irlashishining oldi olingan bo'ladi. Avvalambor, bemorga ko'proq suyuqlik ichirishga harakat qilish lozim. Buning uchun suvsizlanishga qarshi tayyorlangan maxsus vosita – regidron eritmasidan foydalanish mumkin. Agar regidron topishga imkon bo'lmasa, shunga o'xshash eritmani qo'lbo'la usulda tayyorlash mumkin. Buning uchun bir litr ichimlik suviga 4 choy qoshiq shakar va yarim choy qoshiq tuz solib qaynatiladi. Sovutilgandan so'ng 5 daqiqa mobaynida bo'lib-bo'lib ichiladi.

Kasallikka chalinmaslik uchun avvalambor, shaxsiy gigiyena qoidalariga qat'iy rioya qilish lozim. Hojatdan so'ng va ovqatlanishdan oldin qo'llarni sovuq suv bilan yuvish odat tusiga kirishi lozim. Meva va sabzavotlarni tozalab yuvib, qaynatilgan suvda chayib iste'mol qilish, maxsus idishlarda chiqarilgan yoki qaynatilgan suvni ichish, uzoq muddat saqlangan tayyor oziq-ovqatlarni iste'mol qilmaslik, cho'milganda og'iz orqali suv yutmaslik tavsiya etiladi.

Bundan tashqari, ishlatilgan idish-tovoqlarni yuviqsiz qoldirmaslik, chiqindilarni qopqog'i zich yopiladigan chelakka yig'ish lozim, chunki ular infeksiya tashuvchisi bo'lgan pashsha va suvaraklarning ko'payishiga sabab bo'ladi.

B. AHMEDOV,
Mudofaa vazirligi sanitariya-epidemiologiya
nazorati markazi vrach-mutaxassisi

Islahotlar

Sayyor qabul

Hay'at yig'ilishi

SAMIMIY UCHRASHUV



Sirdaryo viloyatida O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov 200 ga yaqin sardobalik yosh bilan uchrashdi.

Ochiq muloqotda "Vatanparvar" tashkiloti faoliyati, jumladan tizimda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular orasida sportning texnik va amaliy sport turlarini ommalashtirish hamda mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot berildi. Tadbir qizg'in savol-javoblar bilan o'tdi.

"Rahbar va yoshlar" uchrashuvi doirasida tashrif buyuruvchilar uchun tashkilotning o'quv avtomobillari va sport seksiyalaridan iborat ko'rgazmalari ham tashkil etilgan.

Uchrashuv doirasida "Vatanparvar" tashkiloti Sirdaryo viloyati kengashi tasarrufidagi Sardoba tumani

o'quv sport-texnika markazining belgilangan standartlarga muvofiq, qurib bitkazilgan yangi zamonaviy o'quv avtodromi ham foydalanishga topshirildi.

Tantanali ochilish marosimida "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov, viloyat kengashi hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Tadbirda viloyat kengashi tasarrufidagi o'quv muassasalariga yangi zamonaviy 8 dona "KIA Sonet" va 4 dona "Onix" rusumidagi avtomobil topshirildi.

O'zbekiston mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Qurolli Kuchlar vazirlik va idoralari rahbariyati bilan hamkorlikda olis hududlarda ommaviy sayyor qabullar davom ettirilmoqda.

Islahotlarning HAYOTIY IFODASI

Bu galgi shunday ommaviy sayyor qabul Toshkent viloyatining Chirchiq shahrida tashkil etildi. Unda harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari, pensionerlar va yoshlar tinglandi.

Dastavval, ochiq muloqot o'tkazilib, yurtimizdagi islohotlarning hayotiy ifodasi, Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondonining alohida e'tibori va g'amxo'rliqi natijasida, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari uchun yaratilgan keng imkoniyat va imtiyozlar haqida atroflicha so'z yuritildi.

So'ngra mas'ullar qatnashuvida murojaatlarni shu joyning o'zida hal etish choralari ko'rildi. Jarayonda huquqiy maslahatlar berilib, ko'rib chiqish muddat talab etadigan murojaatlar nazoratga olindi.

Shu kuni tashkil etilgan kitoblari ko'rgazmasi ham qabulga tashrif buyurganlar uchun ayni muddao bo'ldi.

Adliya mayori Begali XURRAMOV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining katta yordamchisi

YARIM yillik sarhisob

Bosh prokuror o'rinbosari – O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori raisligida O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi hay'atining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Videokonferens-aloqa tarzida o'tgan muloqotda mahkama va hududiy harbiy prokuraturalarning barcha xodimlari ishtirok etdi.

Unda harbiy prokuratura organlari tomonidan joriy yilning 6 oyida yangi tahrirdagi Konstitutsiya, boshqa qonun va qonunosti hujjatlarida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar ko'rib chiqildi.

Jarayonda qo'shinlarda qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniyligni mustahkamlash, harbiy xizmatchilar va ular oila a'zolarining ijtimoiy himoyasi, huquqbuzarliklarning oldini olish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, energetika, ekologiya xavfsizligi, byudjet mablag'lari iqtisodi borasidagi va faoliyatga doir boshqa masalalar sarhisob qilindi.

Yakunda tegishli qaror qabul qilinib, kelgusi vazifalar belgilab olindi.

Adliya mayori Farrux SAYSULTANOV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi bo'lim boshlig'i

Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotining Qashqadaryo viloyati kengashi tasarrufidagi Chiroqchi tumani o‘quv sport-texnika markazi nodavlat ta’lim muassasasida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi ishlar tizimli va bosqichma-bosqich hamda samarali tashkil etilmoqda.



Chunonchi, shu maqsadda tumandagi barcha mahalla fuqarolar yig'inlari, o'quv muassasalari va chekka hududlarda ham ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, sportning texnik va amaliy turlari bo'yicha ko'plab ko'rgazmali chiqishlar tashkil etilyapti. Markazda sportni ommalashtirish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilyapti. Ayni kunlarda tashkilot qoshida "Havo miltig'idan o'q otish", "Duatlon", "Karting" kabi seksiya va to'garaklar faoliyat olib bormoqda. Bu to'garaklarda o'ttiz nafardan ziyod iqtidorli yosh muntazam shug'ullanib kelmoqda.

Albatta, amaldagi yilning o'tgan oylari mobaynida turli muhim sanalarga bag'ishlab belgilangan reja asosida tuman miqyosida bir necha bor sport musobaqalari tashkil etildi. Buning natijasi o'laroq, sportchilarimiz respublika, viloyat miqyosidagi musobaqalarda muvaffaqiyat qozonib kelmoqda.

Shuningdek, harbiy-
vatanparvarlik, ma'naviy-

axloqiy tarbiyani yuqori
saviyada tashkil etish hamda
uni amalga oshirish borasida
ham targ'ibot-tashviqot yuritish
kabi tadbirlar ham doimiy
ravishda tashkil etilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan "Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va yangi kelajak yaratamiz!" degan ezgu

g'oyani o'zida mujassam etgan harbiy-vatanparvarlik va sport tadbirlarining barchasi "Vatanparvar" tashkiloti viloyat kengashi, tuman hokimligi, mudofaa ishlari, maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari hamda Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda tashkil etilmoqda.

Ayni paytda tashkilotning
yana bir muhim yoʻnalishi
boʻlgan haydovchilar tayyorlash

va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish borasida ham muayyan natijalarga erishilmoqda. Shu kunlarda markazda “A”, “B”, “BC”, “BE”, “CE” hamda “D” toifali haydovchilar tayyorlanmoqda.

O'z navbatida, malakali mutaxassislar tayyorlash uchun tashkilot yetarli moddiy-o'quv bazaga ega. Zamonaviy sinfxonalar, zarur shart-sharoitlar, barcha kerakli texnik qurilmalar hamda transport vositalari bilan ta'minlangani bo'lajak haydovchilar malakasini oshirishda har tomonlama qo'l kelmoqda.

**Lazizjon RAJABOV,
“Vatanparvar” tashkiloti
Chiroqchi tumani O‘STM
NTM direktori**



Reklama huquqi asosida



Jizzax shahrida faoliyat yuritayotgan “JIZZAKH AUTO SCHOOL” avtomaktab mas’uliyati cheklangan jamiyatini ham tom ma’noda islohotlar mevasi deyishimiz mumkin. Zotan, mamlakatimizda muhtaram Yurtboshimiz tashabbuslari bilan erkin mehnat, tadbirkorlik faoliyatiga keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Mazkur avtomaktabni tashkil etish natijasida o'ttiz nafar jizzaxlik doimiy ish o'rinlari bilan ta'minlandi. Muhimi, haydovchilik sir-asrorlarini o'rganmoqchi bo'lgan yoshlar uchun keng imkoniyatlar eshigi ochildi.

Avtomaktabda tinglovchilarga zarur qulayliklar yaratilib, zamonaviy talablarni o'zida mujassam etgan sinf xonalari, avtodrom hamda turli rusumdagi o'quv avtomobillari taqdim qilingan.

Bugungi kunda tinglovchilar zamonaviy innovatsion texnologiyalar bilan jihozlangan ushbu o'quv muassasada "A", "B", "BC", "CE" hamda "D" toifali haydovchilar tayyorlash kurslarida tahsil olishlari va qayta tayyorlash kurslarida o'z bilim va mahoratlarini oshirishlari mumkin.

O'quv kurslarimizga MARHAMAT!

Ayni paytda Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi asta-sekin o‘z natijalarini bermoqda. Endilikda har sohada o‘zgarishlar mevasi ko‘rinayotgani, tabiiyki, har birimizni quvontirib, yanada unumli mehnat qilishga, izlanishga undamoqda.



“JIZZAKH AUTO SCHOOL” avtomobil maktabi barcha xohlovchilarni avtomobil boshqarishning “A”, “B”, “BC”, “C”, “CE” hamda “D” toifalariga o‘qishga taklif etadi. Mashg‘ulotlar tajribali mutaxassislar tomonidan olib borilishi kafolatlanadi. Shuningdek, bu yerda haydovchilar malakasini oshirish kurslari ham faoliyat yuritmoqda.



REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA

Millat fidoyilari

YOVLARGA AYLADI *ko'ksini qalqon*

*Elini asradi sheryurak o'g'lon,
Yovlarga ko'ksini aylabon qalqon,
Jasorati bo'ldi tillarda doston,
Yurtiga Shirog'-u Farhod, Xayriddin!*



O'tkinchi dunyoda yaxshi nom bilan iz qoldirish oson emas. Sanoqli insonlarning nomigina manguqlikka muhrlanadi, ularga atab she'r-u dostonlar bitiladi. Yillar o'tsa-da, katta-yu kichik ularning nomini ehtirom ila tilga oladi, hurmat ila xotirlaydi. Ayniqsa, Vatan tinchligi va hurligi uchun jon tikkanlar yodi hamisha ehtirom va e'zozga loyiq.

A'LOCHI, G'AYRATLI SPORTCHI

Farg'ona viloyatining So'x tumanidagi 18-sonli umumta'lim maktabidamiz. Ta'lim dargohi hovlisiga 2000-yili Surxondaryoning Sariosiyo va Uzun tumanlarida xalqaro terrorchilarga qarshi harbiy harakatlarda ishtirok etib, qahramonlarcha halok bo'lgan katta serjant Xayriddin Xolboyevning byusti o'rnatilgan. Maktab ichida esa qahramon yigitga bag'ishlangan ixchamgina muzeyga duch kelasiz. Uning katta portreti oldida Xayriddinga bag'ishlangan xotira she'ri joy olgan. Yuqoridagi misra shu she'rdan parcha. O'quvchilarning ko'pi bu she'rni yod olgan va qahramon haqidagi ma'lumotlarni yaxshi biladi.

Tashrifimiz chog'ida ham maktab Yoshlar ittifoqi yetakchisi Ofarida Qosimova boshchiligidagi o'quvchilar Xayriddin Xolboyevga bag'ishlangan she'r va qo'shiqlari bilan mehmonlarni xushnud etishdi. Zero mardlar nomi unutilmasligi e'tirofi bu.

– U juda iqtidorli o'quvchi edi, – Xayriddinni yodga oladi ustozi Ayyubjon G'oyibov, – buyurilgan topshiriqni o'z vaqtida bajarardi. Fanlardan a'lochi bo'lish bilan birga, sportda ham yetakchilardan edi, ayniqsa, voleybolda. Shu sabab u ishtirok etgan tuman musobaqalarida maktabimiz o'quvchilari birinchi o'rinni egallardi. Xayriddin g'ayratli va qat'iyatli, do'stlariga mehribon bo'lgani uchun o'rtoqlari doim uning ortidan ergashardi...

ORZULARI KO'KSIDA KETGAN O'G'LO

Yigirma olti yil, Sariosiyodagi harbiy harakatlarga avgust oyida yigirma olti yil bo'ladi. Demak, Xayriddinning bu dunyoni tark etganiga ham... u o'shanda 21 yoshda edi. O't-olov, g'ayratli, orzulari osmon, kuyovlik sarpolarini kiyishga bir qadam qolgan, to'yi bo'lish arafasida turgan yigit...

So'x tumanidagi Lemberg qishlog'ida Shodibek aka Xolboyevlar oilasining o'z o'rni va hurmati bor. Xayriddin shu xonadonning to'ng'ich farzandi edi. Oila boshlig'i quruvchi-usta bo'lib, yon-atrofdagi ko'plab uylarning qad rostlashida Shodibek akaning ulushi katta bo'lgan. Shu bois oila farzandlari Xayriddin va Shamsiddin ham ustachilikka erita mehr qo'ygan, otalariga yordamchi bo'lgan. Biroq Xayriddin harbiy soha vakili bo'lishni bolaligidan orzu qilgan, jismonan baquvvat bo'lishga intilgan. Sport bilan shug'ullangan, har tong yugurish mashqini bajargan. O'smir chog'larida Ikkinchi jahon urushida qatnashgan bobosi Ketmas akadan urush voqealarini tinglashdan charchamas, savollari adoqsiz bo'lardi, uning. Shu sabab desantchilar harbiy qismida muddatli harbiy xizmatni o'tagan yigit, xizmatini kontrakt bo'yicha maxsus operatsiya kuchlari batalyonida davom ettirishga muvaffaq bo'lgan.

– Xayriddin bilan xizmatda ham, harbiylar shaharchasidagi turarjoyda ham, Sariosiyodagi harbiy harakatlarda ham birga bo'lganimiz, – deydi safdosh do'sti iste'fodagi serjant Oybek Hamdamov. – U haqiqiy maxsus guruh posboni edi. Mard, ortga chekinmas, har qanday sharoitga moslasha oladigan, qo'rqmas yigit edi. Nazariy mashg'ulotlarda a'lochi, yozuvi juda chiroyli bo'lib, husnixatiga har qanday odam tan berardi. "Qiz bolalarga o'xshab chiroyli yozasan", deb hazillashib, gohida uning g'ashiga

tegardim. Mashg'ulotlarda ulgura olmasam, albatta, menga yordam berardi. Amaliy mashg'ulotlarda ham doim oldingi safda bo'lgan. Bilasiz, So'x tog'li hudud, tog'da o'sgan yigitning chapdast va epchil bo'lishi, shubhasiz.

Ikkimizning ham kelajak orzularimizdan biri oila qurib, farzandlar ko'rish edi. U ko'p o'tmay unashtirildi, to'yi bo'lishi kerak edi, biroq... Xalqaro terrorchilarga qarshi olib borilgan harbiy harakatlarda yonma-yon turdik. Amaliy mashg'ulotlarda shartli dushman bilan jang qilgan maxsus guruh posbonlari uchun bu haqiqiy sinov maydoni edi. Biz bu kunga har tomonlama tayyor edik, lekin safdoshlardan ayrilish... Xayriddin halok bo'lganda ham birga edim. Men og'ir yarador bo'ldim, u esa...

Ha, hayotdan erta ketgan do'stni eslash oson emas, ayniqsa u yaqin safdoshing bo'lsa. 2000-yildagi harbiy harakatlarda ishtirok etgan maxsus guruh posbonlarining deyarli barchasi hozir iste'foda. Ammo Xayriddinning qaysi bir safdoshi bilan suhbatlashmay, u haqdagi o'ziga xos fikrlar, iliq xotiralarga ega bo'ldim. Oilasida bo'lganimizda esa bizni ota-onasi, yaqinlari bilan birga, mahalliy hokimiyat vakillari, qo'ni-qo'shni va qarindosh-urug'lari qarshi oldi. Har birlarining qahramon yigit haqida aytadigan dil so'zi, xotiralari bor. Bunday damda eng og'iri ota-ona bilan jigarbandini yodga olish.

– Xayriddin katta o'g'limiz, ishongan tog'imiz edi. U harbiy xizmatchi bo'lishga qaror qilganida dadasi ikkimiz rozi bo'ldik, – Gulsumbibi opa ko'zlarida yosh ila o'g'lini xotirlaydi. – Chunki u bir ishga ahd qildimi, erishmaguncha tinchimasdi. Askarlik burchidan so'ng xizmatni davom ettirdi. Bag'rimizdan uzoqda bo'lgani uchun, uylantirib qo'yishga qaror qildik. Oldida issiq-sovug'idan xabardor bo'lib turadigan yaqini bo'lsa yaxshi, ko'nglimiz xotirjam bo'ladi deb, o'yladik. Bag'rimizga oxirgi marta kelganida 2000-yilning iyul oyi edi. Avgust yoki sentabrda to'yini o'tkazmoqchi edik. Doim "To'yimga Xurshid Rasulo'vni olib kelamiz", derdi. O'n kun yonimizda bo'ldi. Do'stlarining biri qo'yib, biri kelib turdi. Ta'tili tugagach, xizmatiga otlandi, xayrlashib yo'lga tushdi. Ortidan termilib turibman. Shunda besh-o'n qadam yurdi-yu orqasiga qaytdi...

Gulsumbibi opa mujgonlarini artar ekan, bir muddat jim qoldi. Anglashimcha, ko'z oldida beixtiyor o'sha onlar gavdalandi. O'shanda ona-bola o'rtasida qo'yidagicha suhbat bo'lib o'tgandi:

– Tinchlikmi, bolam, biror narsang yodingdan ko'tarilibdimi?
– Yo'q, onajon, hammasi joyida, faqat to'yga tayyorgarlik ko'rmay turinglar.

– Nega?
– Men bir joyga ketyapman, uzoq joyga. Qaytmasligim mumkin.

– Bu nima deganing? Unday dema, bolam, bo'lajak kelinimiz seni qachondan buyon kutadi, uni noumid qilma.
– Qaytsam, o'sha qiz meniki! Agar qaytmasam, uni ukamga olib beringlar. Siz aytgandek, noumid bo'lmasin...

– Xayriddin ketganidan keyin, o'ylab o'yimga yetolmadim, – xo'rsinadi Gulsumbibi opa. – O'g'lim nega unday dedi, biror rejası bo'lsa, menga aytgisi kelmadimi? Ammo bolamni o'shanda oxirgi marta ko'rib turishim, bag'rimga tobutda qaytishini aslo xayolimga keltirmagandim...

Ruhi toza insonlar bo'ladigan ishni oldindan sezadi, deyishadi keksalar. Xayriddin ta'tildan qaytayotganda Sariosiyodagi harbiy harakatlar boshlanmagan, unda ishtirok etishi hali noma'lum edi. Ne bo'lganda ham, sirli dunyo bu.

Xona to'ridan joy olgan mo'jazzina uy muzeyiga e'tibor qarataman. Unda katta serjant Xayriddin Xolboyevga tegishli "Jasorat" medali va turli mukofotlar, rasmlar, harbiy liboslar va boshqa bir qator buyumlar bor. Albatta, bu mo'jazzina muzey va qahramon yigitning ota-onasini ziyorat qilguvchilar ham yetarli. Bir so'z bilan aytganda, yillar, davrlar o'tar, avlodlar almashar, lekin yurt tinchligi, millat erki uchun yosh umrini yovga qalqon qilgan jo'mardlar nomi barhayotdir.

**Zulfiya YUNUSOVA,
"Vatanparvar"**



MUASSIS
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MUDOFAA VAZIRLIGI

VATANPARVAR



Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev
podpolkovnik Ulug'bek Fattaxov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

ko'tiriyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

Navbatchi: podpolkovnik Gulnora Xodjamuratova

Sahifalovchi: Tohirjon Turg'unboyev

Musahhih: Sayyora Meliqo'ziyeva

Buyurtma: V-6167

Hajmi: 6 bosma taboq

Bichimi: A3

Adadi: 31 947 nusxa

Bosishga topshirish vaqti: 14:00

Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "IBRAGIMOV RAHIMJON MAXMUDOVICH" YTT mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.

Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.

Bahosi: kelishilgan narxda.

"IBRAGIMOV RAHIMJON MAXMUDOVICH" YTT hamkorlikda "O'zbekiston" NMIU bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan
tahririyati bilan bog'lanish
uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA



www.mudofaa.uz



t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi



www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@gmail.uz



mudofaavazirligi



mudofaavazirligi



www.youtube.com/c/UzArmiya